

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`l yozma huquqida
UDK: 811.512.133:811.111

MAKSUDOVA YULDUZ SAIDUMAROVNA

**Ingliz va o`zbek tillarida ko`p ma`noli so`zlarning leksik-semantik
xususiyatlari**

5A120102 –Tilshunoslik (ingliz)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
dotsent Khayumova M.S.**

**Ilmiy maslahatchi:
dotsent Gadoyeva M.I.**

MUNDARIJA :

| | |
|---|----|
| Kirish | 3 |
| I bob. SO`Z VA POLISEMANTIZM | 6 |
| 1. Tilshunoslikda so`z va uning mohiyati..... | 6 |
| 2. Polisemiya va uning turlari..... | 9 |
| I bob bo'yicha xulosa | 24 |
| II bob. INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA SO`ZLARNING KO`P MA`NOLILIGI | 25 |
| 1. Ingliz va o`zbek tillarida «ko`z» so`zining ko`p ma`noliligi..... | 25 |
| 2. Ingliz va o`zbek tillarida «bosh» so`zining ko`p ma`noliligi..... | 41 |
| II bob bo'yicha xulosa | 60 |
| III bob. INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA «OG`IZ», «QULOQ», «BURUN» VA «TIL» SO`ZLARINING O`XSHASH VA FARQLI TOMONLARI | 61 |
| 1. Ingliz va o`zbek tillarida «og`iz», «quloq», «burun» va «til» so`zlarining o`z va ko`chma ma`nolari..... | 61 |
| 2. Ingliz va o`zbek tillarida «og`iz», «quloq», «burun» va «til» so`zlarining o`xshash va farqli tomonlari..... | 68 |
| III bob bo'yicha xulosa | 70 |
| Xulosa | 71 |
| Adabiyotlar ro`yxati | 73 |

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mustaqil Respublikamizda yangi ta'lim tizimida chet tillarni o'rganishga, ularning o'qitish usullarini intensivlashtirishga, yangi darslik, qo'llanma va ikki tilli lug'atlar yaratishga alohida e'tibor qilingan. Istiqlol sharofati tufayli yurtimizda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim va fan sohalarida ham keng ko'lamdagi islohotlar tadbiq qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni^[1] hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"^[2] buning yorqin dalilidir.

Xorijiy tillarni bilmay turib yosh kadrlarni taraqqiy etgan chet el mamlakatlariga o'qishga yuborish hamda ular yutug'idan bahramand bo'lish, Respublikamizda fanning mustaqil va mustahkam poydevorini yaratish, jahon andozasi darajasiga ko'tarish, yangi yo'nalishlarni olib kirish mushkuldir. Prezidentimiz I.A.Karimov : «Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganishga yurtimizda juda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini taqqoslashga hojat yo'q» -deb fikr bildirganlar^[3].

Respublikamiz mustaqil bo'lgandan buyon chet tillarni o'rganish davlatimizning diqqat markazida turibdi. Ayniqsa so'nggi yillarda xorijiy tillardan ingliz tilini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning isboti sifatida maktabgacha ta'lim va maktab ta'limining ilk bosqichlaridanoq yosh avlodga ingliz tilini chuqur o'rgatish uchun dars soatlari joriy qilindi. Shuningdek, o'zbek yoshlarini chet davlatlarda malaka oshirishlari uchun turli xil jamg'arma va tanlovlar tashkil qilindi.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.// Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. —T.:Sharq, 1997.

² O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. —T.:Sharq, 1997.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qarori.

Biz ham bu yil magistratura bosqichini bitirib, o`qituvchilik ishimizga talabchanlik bilan qarab, uni sharaflı kasb sifatida bir pog`ona yuqoriga ko`tarishga harakat qilamiz.

Tanlagan mavzumiz “Ingliz va o`zbek tillarida- “ko`z”, “bosh”, “og`iz”, “burun”, “til” so`zlarining ko`p ma`noligi” bu sohaga qo`shgan kichik hissamiz bo`ladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifasi. Mazkur tadqiqot mavzusini tanlashdan maqsad ingliz va o`zbek tillarida mavjud bo`lgan “ko`z“, “bosh”, “og`iz”, “burun”, “til” so`zining ko`chma ma`nolari va bu so`z bilan bog`liq iboralarni, ularning berilish usullarini o`rganishdan iborat.

Ko`chma ma`noda berilgan so`z va iboralarni tushuntirish jarayonida talabalarga o`zbek tilida mazkur so`zning qanday usullar bilan berilishini tushuntirish lozim.

Bu bilan ingliz tilini o`rganayotgan talabalarga «bosh», «og`iz», «quloq», «burun» va «til» so`zlarinig bir necha ko`chma ma`nolarini tushuntirishda mazkur ish orqali olib borilgan tahlil asosida kelib chiqqan xulosalardan foydalanishga ingliz tili o`qituvchilari uchun tahlil etilayotgan chet tillarni o`rgatish ishini yaxshilash uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Tadqiqotning vazifasi. 1. So`z va uning mohiyati, leksik ma`no, polisemiya, ya`ni ko`p ma`nolilik va uning turlariga umumiy tushuncha berish. 2. Ingliz va o`zbek tillaridagi «ko`z», «bosh» so`zlarining o`z va ko`chma ma`nolarini o`rganib tahlil qilish.

Tadqiqotning yangiligi. Tadqiqot ishida tana a`zolari «ko`z», «bosh», «og`iz», «quloq», «burun» va «til» ingliz va o`zbek tillarida taqqoslanib, ularning o`xshashlik va farqlari ko`rsatilgan.

Tadqiqotning ilmiy metodologik asosi. Mazkur ish Prezident I.A.Karimov asarlari, «Ta`lim to`g`risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda mavzuga oid boshqa ko`plab nazariy asarlarga asoslangan holda yozilgan.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, oliy o`quv yurtlarining ingliz tili bo`limidagi bakalavriat va magistratura bosqichlarida: home reading, analytical reading, stylistics, the interpretation of the text kabi nazariy va amaliy fanlar mavjud. Shu maqsadda mazkur ish yuqorida aytib o`tilgan fanlar bo`yicha mutaxassislarga, bakalavriat va magistratura bosqichidagi talabalarning kurs ishi, bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyalarini yozishda qo`l keladi.

Tadqiqotning tuzilishi. Ishimiz kirish, III bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB

SO`Z VA POLISEMANTIZM

1. Tilshunoslikda so`z va uning mohiyati

So`zlar ob`ektiv reallikdagi predmet hamda holatlarni nomlaydi. So`zning tovush tuzilishi ma`lum bir ma`no bilan bog`liq. Aynan so`zda ma`noning mavjudligi uni biror ma`noga ega bo`lmagan tovush hamda tovush tuzilmalaridan farqlaydi.

So`z - bu predmet, holat, belgi, harakatning nomlanmasidir. So`zlar xalqlarning muloqot davri mobaynida mustahkamlanib boradi.

So`z hamda tushuncha bir xil emas; so`z-til birligi bo`lsa, tushuncha fikr birligidir. Tushuncha reallikning fikrdagi umumlashtirilgan aksidir [1].

So`z umumiy yoki birlik ma`no anglatuvchi deb aytish mumkin.

Biz «computer is a useful thing» deb aytganimizda qandaydir aniq bir kompyuterni emas, balki umuman kompyuterni nazarda tutamiz. Bu holatda "computer" so`zi umumiy ma`no anglatuvchi deb aytishimiz mumkin. (Computer is a useful thing, reading is pleasant). Shuningdek, so`z konkret holat, harakat, belgini ham nomlashi mumkin. (This computer is out of order). "Computer" so`zi bir tomondan kompyuter tushunchasini anglatasa, ikkinchi tomondan konkret bir kompyuterni nomlaydi.

So`z o`z va ko`chma ma`noga ega. So`z o`z ma`nosida predmet yoki holat bilan ma`no jihatidan mos keladi: head-bosh, heart-yurak.

So`zning ko`chma ma`nosida bir so`zning boshqa bir so`zga, holatga, harakatga o`xshashlik asosida ko`chirish orqali yuz beradi: the head of the family-oila boshlig`i-глава семьи, the heart of matters-ishning mohiyati-суть дела[2].

Har bir so`z ma`lum ma`noni anglatadi.

¹ Vorno, E.F. Leksikologiya angliyskogo yazika. - L., 1975. S.7

² O`sha asar. S.43

Ammo bu ma`no barcha so`zlarda bir xil emas. Shu jihatdan so`zlar bir necha to`daga bo`linadi. So`zlarning ma`no turlari quyidagicha:

Nomlovchi so`zlar. Bu ma`no turiga ot (ba`zi atoqli otlardan tashqari), fe`l, sifat, ravish, son kiritiladi. Bular narsani, harakatni va ularning turli-tuman belgilarini nomlaydi: paper-qog`oz, to write-yozmoq, thick-qalin, quick-tez, seven-yetti.

Ifodalovchi so`zlar. Bu ma`no turiga undov, modal so`z va yuklama kiritiladi:

O`zbek tili: eh, shubhasiz, -ku.

Ingliz tili: oh, hush ...

Ko`rsatuvchi so`zlar. Bu ma`no turiga o`zbek tilida bog`lovchi va ko`makchi: va, bilan; ingliz tilida predlog va bog`lovchi: in, at, of, with, as, whereas, because, therefore...

Ikkinchi va uchinchi tur so`zlarda nomlash ma`nosi yo`q: ayrimlari bevosita his-hayajonni, fikrga munosabatni ifodalasa, boshqalari (bog`lovchi, ko`makchi, predlog) so`zlarning gramatik munosabatini ko`rsatish uchun xizmat qiladi^[1].

Ba`zan bir so`z bir necha ma`noni anglatishi mumkin.

Misol:

He knows no more than a man in the Moon.

U oydagi odamdan ko`p bilmaydi.

"funny little chap", said Soames; "he always knows me"

.. .u har doim meni taniydi.

He's the only Forsyte that knows a horse from a donkey.

U Forsaytlar ichidan ot bilan eshakni farqlaydigan yagona kishidir.

So`z deganda lug`at boyligidagi har bir birlik ko`zda tutiladi. Masalan, «qo`l» ham so`z «va» ham so`z.

Ko`rinadiki, bunda so`z leksik mazmun yoki grammatik mazmunga ega birlik bo`lishi mumkin. Shu asosda bularni leksik so`z va grammatik so`z deb

¹ Tursunov U. va b. lar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T.: O`zbekiston, 1992. 54-bet

ikkiga guruhlash kerak. Leksik mazmunli soʻzlarni leksema deb yuritimiz, grammatik mazmunli soʻzlarni esa (affikslar qatori) morfema deb, aniqrogʻi, morfema-soʻz deb yuritimiz. Demak, leksik birlik deganda leksema koʻzda tutiladi, leksemalarni oʻrganuvchi soha leksikologiya deyiladi (yunoncha lexicos-«soʻzga doir», logos-«taʼlim»).

Lugʻat boyligidagi ikkinchi qatlamni iboralar tashkil etadi, bular frazeologik birlik deb yuritiladi; leksema terminiga monandlab frazema deb nomlaymiz. Frazemalarni oʻrganuvchi soha frazeologiya deyiladi. Lugʻat boyligidagi frazeologik qatlam ham frazeologiya deb nomlanadi.

Leksik maʼno va tushuncha. Lugʻaviy birlikning mazmun plani ikki hodisadan - lugʻaviy va stilistik (emotsional-ekspressiv) bahodan tarkib topadi. Lugʻaviy maʼno leksik maʼnoga nisbatan leksik maʼno deb, frazemaga nisbatan frazeologik maʼno deb yuritiladi.

Leksemani gavdalandirgan tovushlar tizimining voqelikka nisbatan beriladigan lugʻaviy mazmuniga (nimanidir nomlashiga, ifodalashiga) leksik maʼno deyiladi. Masalan: «kuz» leksemasi «yoz» bilan «qish» orasidagi faslni nomlaydi, «oq» leksemasi qoraning zidi boʻlgan rangni bildiradi, «toʻrt» leksemasi «uch» bilan «besh» orasidagi butun miqdorning nomi boʻlib xizmat qiladi. Soʻzlamoq, uxlamok leksemalari maʼlum harakat va holatni anglatadi.

Tovush oʻzicha leksik mazmunga ega boʻlmaydi. Buning uchun tovushlarning maʼlum tizimi, voqelikdagi biror narsa, belgi yoki ularning munosabati haqidagi tushuncha bilan bogʻlanishi, nimanidir nomlashi, ifodalashi shart. Leksik maʼno maʼlum tovushlar tizimi bilan voqelik orasidagi bogʻlanishdan kelib chiqadi. Bunday bogʻlanish esa, oʻz navbatida, shu tilda soʻzlashuvchilar tomonidan eʼtirof etilgan boʻlishi shart.

Tovushlar tizimi bilan leksik maʼno orasida qandaydir tabiiy bogʻlanish yoʻq. Voqelikdagi ayni bir narsa, belgi, yoki shular orasidagi munosabat tushunchasi tilda turli tovushlar tizimi, bilan anglatilishi buni yaqqol koʻrsatadi. Masalan, to hear-eshitmoq leksemasi maʼlum harakatni ifodalaydi.

Leksik ma`no bilan u bildiradigan voqelik boshqa-boshqa hodisalardir. Leksik ma`noda voqelikdagi narsa, belgi yoki shular orasidagi munosabatning o`zi emas, balki shular haqidagi tushuncha aks etadi. Shunga ko`ra leksik ma`no deb, odatda, tushuncha ta`kidlanadi.

Leksik ma`no bilan tushuncha o`zaro uzviy bog`liq. Ammo shu asosda bularni tenglashtirish yaramaydi. Leksik ma`no-til qurilishiga xos hodisa, tushuncha-tafakkurga xos hodisa. Bularning har ikkisi umumlashtirish, abstraksiya asosida tug`iladi [1].

Lekin tushuncha fikrlash qobiliyatining natijasi sifatida insonga nisbatan belgilansa, leksik ma`noga xos umumlashish har bir tilning o`z doirasida voqe` bo`ladi. Shunga ko`ra leksik ma`no har bir til uchun, odatda, xususiy bo`ladi. Masalan: bir tushuncha - «ko`rish a`zosi» tushunchasi rus tilida «глаз» leksemasi bilan, o`zbek tilida «*ko`z*» *leksemasi bilan, ingliz* tilida esa «eye» leksemasi bilan anglatiladi. Shu jihatdan teng keluvchi bu uch leksema o`z leksik ma`nolari sistemasi bilan keskin farq qiladi.

Ruscha leksema uchun quyidagi ikki asosiy ma`no ko`rsatiladi: 1) «ko`rish a`zosi» 2) «kuzatuvchi» ;

Inglizcha leksema uchun: 1) «ko`rish a`zosi» 2) «ko`rish qobiliyati» 3) «qarash» 4) «eshikdagi qulf teshigi»

O`zbekcha leksema uchun: 1) «ko`rish a`zosi» 2) «nazar, nigoh, qarash» 3) «ko`rish qobiliyati» 4) «narsalarning biror belgi bilan ajralib turadigan ma`lum qismi, bo`lagi».

2. Polisemiya va uning turlari

Til birliklari bir yoki birdan ortiq ma`noni anglatadi. Bir ma`noni anglatish hodisasi monosemiya, bunday xususiyatli til birligi monosemantik birlik deyiladi, (yunoncha), monos - «bir», sema, semion - «belgi», semantikos - «bildiruvchi»). Birdan ortiq ma`noni anglatish hodisasi polisemiya, bunday xususiyatli til birligi

¹ Tursunov, U va b. lar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T.: O`zbekiston, 1992. 55-bet

polisemantik birlik deyiladi (polys - «ko`p»). Barcha til birliklari monosemantik va polisemantik deb ikkiga guruhlanadi. Bulardan polisemantik til birliklari alohida diqqat bilan o`rganishni talab qiladi.

Birgina tushuncha yoki tasavvurni anglatib kelgan so`zlar bir ma`noli yoki monosemantik so`zlar deyiladi: shahar, qishloq, urg`u, kesim, roman... .

Ikki va undan ortiq tushuncha yo tasavvurni ifodalab keluvchi so`zlar polisemiya deyiladi: bosh, qosh, ko`z, til, qo`l, bel, yo`l, yer, lab [1].

Quyidagi ma`nolarni taqqoslasak:

O`zbek tilida: tizzaning ko`zi, taxtaning ko`zi, buloqning ko`zi, ignaning ko`zi, yaraning ko`zi, xurjunning ko`zi, uzukning ko`zi, derazaning ko`zi, kartoshkaning ko`zi.

Yuqoridagi ma`nolar rus tilida ayrim-ayrim leksema bilan anglatiladi: коленная чашечка, сучок в доске, место откуда бьёт родник, ушко иглы, отверстие нарыва, одна половина (отделение) переметной сумы, камень в кольце, отдельное стекло окна, глазки картофеля [2].

Ingliz tilida bu leksemalarning ayrimlarigina «ko`z» ("eye") orqali ifodalangan: fibula, twig on a board, the source of well, eye of a needle, aperture of abscess, a part of the bag, the stone of the ring, a part of the window, eye of a potato [3].

Ko`rinadiki, ayni bir tushuncha uch tilda boshqa-boshqa leksemalarga yoki muqobil leksemalarga birlashtirilgan bo`ladi. Ayni shu tushunchani anglatuvchi ma`nolar har bir tilda har xil leksik sistemalarga birlashadi va shunga ko`ra mavqei ham turlicha bo`ladi.

Kengroq yondashsak, so`z bilan tushuncha orasidagi munosabat anchagina murakkab. Bir tomondan, har bir so`z ma`lum ma`noni bildiradi, ammo har bir so`zning tushuncha anglatishini kutish to`g`ri kelmaydi (tushuncha anglatish nomlovchi so`zlarga xos xususiyatdir).

¹ Qilichev, E. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T., 2000. 90-bet

² Ojegov, S. Slovar` russkogo yazika. M.: Russkiy yazik, 1984. S.44

³ Bright. W. International Encyclopedia of linguistics. Cambridge: Cambridge University Press. 1995. p-2

Ikkinchi tomondan, bir soʻz (leksema) ikki va undan ortiq tushunchaning ifodasi boʻlib xizmat qila oladi: koʻp maʼnoli leksemaning har bir maʼnosi ayrim-ayrim tushunchani anglatadi.

Masalan, «koʻz» leksemasining «koʻrish aʼzosi» maʼnosi bir tushunchani, «ignaning ip oʻtkaziladigan teshigi» maʼnosi ikkinchi tushunchani, «uzukdagi qimmatbaho tosh» maʼnosi boshqa bir tushunchani anglatadi [1].

Polisemantik soʻzlarning maʼnosi faqat matnda bilinadi:

M: Bobomning koʻzi hali yaxshi koʻradi (organ); Buloqning koʻzi. ignaning koʻzi (tuynuk); Uzukning koʻzi (uzukka qoʻyilgan tosh);

Taxtaning koʻzi (taxtadagi doira shakl)

F.ex: Soames shook her hand and went downstairs (organ);

He never read a book in his life and ... still writes a schoolboy hand (husnixat);

It would be like trying to make the hands of a clock move backwards to its ticking (soat mili);

Mr Hunter suddenly failed, and all hands in the mill were turned off ... (ishchilar).

Baʼzida polisemiyani omonimiyadan farqlash qiyin kechadi.

Bunda biz polisemantik soʻzning bosh maʼnosining kengayib borishini yodda tutishimiz kerak.

Misol tariqasida «katta tosh», «choʻqqi», maʼnolariga ega ot «gosk» hamda «qimirlamoq» yoki «tebranmoq» maʼnosiga ega boʻlgan feʼl «to gosk» ni koʻrib chiqsak.

Koʻrinib turibdiki bu soʻzlar shubhasiz omonimlardir. Lekin «to gosk» hamda «gosk (music)» soʻzlar orasidagi aloqa polisemantik hisoblanadi. Chunki, musiqaning bu turi shubhasiz qimirlash (tebranish) bilan bogʻliq.

Polisemantik soʻzning har xil maʼnolari, maʼno yaqinligi jihatidan birlashishi mumkin. Masalan, «blanket» soʻzini olsak, u quyidagi maʼnolarga ega:

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati II tomlik 1-tom.M., 1981.55-bet

Jun qoplamali to`shak.

Otning to`shak qoplami.

Qor qoplami (ko`chma ma`noda) - a blanket of snow

So`z ma`no shakllanishiga ko`ra 2 xil:

1. Radiatsion.

2. Konkatinatsion.

Radiatsion shakllanishda so`zning bosh ma`nosi markazda turib, keyingi ma`no u orqali nur kabi o`tib, u bilan bog`liq bo`ladi.

Masalan: «face» so`zining bosh ma`nosi «inson boshining old qismi».

Bundan kelib chiqib «old qism» bilan bog`liq tushunchalar vujudga kelgan:

the front part of a watch-soatning old qismi;

the front part of a building-binoning old qismi;

the front part of a playing card-o`yin kartasining old qismi.

Lekin «face» so`zining o`zi bilan bog`liq ma`no ham mavjud:

Expression of the face-yuz ifodasi.

Bu yerda tashqi ko`rinish ma`nosi keltirilgan.

Konkatinatsion shakllanishda esa so`zning 2-ma`nosi zanjirga o`xshash shakllanadi (keyingi ma`nolar ham). Bundan kelib chiqqan boshqa ma`nolarni bosh ma`no bilan bog`lash qiyin kechadi, ular orasidagi aloqa uziladi.

Masalan: «crust» so`zining bosh ma`nosi:

«nonning qizargan qattiq qismi», so`ng «biror narsaning qattiq qismi» (a pie, a cake), «qor ustidagi muz qatlam», «odamovi, kamsuqum inson», «behayo, betgachopar» kabi ma`nolar shakllangan.

Bu misollarda biz oxirgi 2 ma`noning bosh ma`no bilan hech qanday aloqasini ko`rmayapmiz. Bunday hollarda tilda omonimlarning shakllanishi yuz beradi. Polisemiya esa tarqalib ketadi.

Polisemiya til uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki, tilda yangi so`z hosil qilish oson emas. Polisemiya esa yangi ma`no kasb etib, tilning lug`aviy boyligini boyitib boradi. Polisemantik so`zlarning tizimi asrlar davomida shakllanib,

yangidan yangi ma`nolar vujudga kela boshladi. Shuningdek ba`zilari yo`qolib ketdi. Shunday qilib polisemiya shakllanishining murakkab usuli bu yangi tushuncha (ma`no)larning paydo bo`lishi yoki eskilarining yo`qolib ketishidir.

Hozirgi ingliz tilining maqsadi ingliz lug`atini boyitib, uning manbalarini shakllantirishdir. Polisemantik so`zlarning 2 xil tahlili mavjud.

So`zning ma`no tuzilishi ma`nolar sistemasi, tizimi bo`lib hisoblanadi.

Markaz so`zni topish har bir polisemantik so`zda ham mavjud emas.

Ba`zi bir semantik strukturalar boshqa xil tahlilga ega. «Dull» sifatini olib qaraydigan bo`lsak, unda bosh yoki markaziy birlashtiruvchi so`zni topish juda mushkul:

1. A dull book, a dull film-uninteresting, monotonous, boring;
2. A dull student-slow in understanding, stupid;
3. Dull weather, a dull day, a dull colour-not clear or bright;
4. A dull sound-not loud or distinct;
5. A dull knife-not sharp;
6. Trade is dull-not active;
7. Dull eyes (arch)-seeing badly;
8. Dull ears (arch)-hearing badly

Bu yerda biz har xil tushunchalar orasidagi umumiylikni fahmlashimiz mumkin. Biz bu tushunchalarni alohida ko`rib chiqqanimizdagina tushunchalarga yetishmayotgan bir xil belgini aniqlashimiz mumkin:

1. Uninteresting - deficient in interest or excitement;
2. ... Stupid - deficient in intellect;
3. Not bright - deficient in light or colour;
4. Not loud - deficient in sound;
5. Not sharp - deficient in sharpness;
6. Not active - deficient in activity;
7. Seeing badly - deficient in eyesight;

8. Hearing badly - deficient in hearing.

Yuqoridagi misolimizdan ko`rinib turibdiki, «dull» so`zining semantik strukturasi birlashtirish markazida bir so`z emas, balki aniq bir komponent (deficient), ajralgan tushunchalarni osongina birlashtirmoqda.

So`z semantik strukturasi har bir ajralgan tushuncha sistemali analizning sub`ekti bo`lib, u semantik komponentning tarmog`i sifatida keladi. "Dull" so`zining semantik strukturasi ko`rinib turibdiki, so`zning ma`no tuzilishi shunchaki ma`no yoki tushunchalar sistemasi emas, balki ajralgan tushunchalarning kichik bo`linmasi bo`lib, o`zining ichki strukturasi ega. Shundan kelib chiqib aytish joizki, so`zning semantik strukturasi bu ikkala tahlil orqali o`rganilishi zarur .

Palmer ta`kidlaganidek, nafaqat har xil leksemalar turli xil ma`nolarga ega, balki bir leksema ham bir qator ma`nolarni berishi mumkin. Bu polisemiya va bunday leksema polisemikdir.

Polisemiya ko`plab leksemalarni xarakterlaydigan yagona leksemaning xususiyatidir. Masalan, "neck" oti standart ingliz lug`atlarida yakka leksema sifatida ko`rsatilgan bo`lib, bir necha farq qiladigan ma`nolarga ega: "part of body", "part of bottle", "part of a shirt or other garment". Demak, "neck" leksemasi polisemantikdir.

Leeshning fikriga ko`ra polisemiya bu (ikki yoki undan ortiq ma`noga ega bir so`z) tushunchalarning 2 yo`l: tarixiy va psixologik yo`llarga bog`liq bo`lib, bir-biri bilan mos kelishi shart emas. Ikki ma`noning psixologik bog`liq bo`lishi: intuitiv seziladi va shu so`z turli xil ma`nolarda so`zlovchilar tomonidan qo`llaniladi.

Bu ikki qarash polisemiyaning omonimiya (ikki yoki undan ortiq, har xil yoki boshqa xil ma`nolarga ega, talaffuzi bir xil so`z) dan farqlash uchun qo`llash mumkin. "Head" polisemik leksema quyidagi ma`nolarga ega: the head of a person, the head of a company, the head of a table va hokazo. Endi esa "Bank"

leksemasini tahlil qilsak, u bir xil talaffuzga ega, lekin ma`no jihatidan farq qiladigan quyidagi ma`nolarga ega:

1. "a business establishment in which money is kept for saving or commercial purposes or invested, supplied for loans, or exchanged", ya`ni pul operatsiyalari olib boriladigan tashkilot (bank).

2. "the slope of land adjoining a body of water, especially adjoining a river, lake or channel", ya`ni qirg`oq.

Yana shunday so`zlar ham borki, ular psixologik emas, balki tarixiy jihatdan bog`liqdir. Masalan, "pupil" leksemasi ikki xil ma`noni bildirib, manbasi bir:

1. «Ko`z qorachig`i»

2. «O`qituvchi nazoratidagi talaba».

Palmer va Lyons 2 xil kriteriya: etimologiya (so`zning kelib chiqishi) hamda tushunchalarning bog`liqligini ko`rsatishadi.

Lug`atshunoslar esa polisemiya va omonimiyani etimologiyaga asoslanib o`rganishadi. Bir xil shaklga ega, kelib chiqishi bir manbadan bo`lgan so`zlar polisemikdir hamda u lug`atda bir tushuncha orqali berilgan. Bunga qarama-qarshi holda, bir xil shaklga ega, manbasi boshqa bo`lgan so`zlar omonimlardir va bu so`zlar lug`atda turli xil tushunchalar orqali ifodalangan. Shunday qilib, "head" bir tushuncha orqali, "bank" esa ikki xil tushuncha yoki ma`noga ega.

Lug`aviy polisemiya Polisemiya lug`aviy birliklarga ham, grammatik birliklarga ham xos, shunga ko`ra ikki xil:

Lug`aviy polisemiya - lug`aviy birliklardagi ko`p ma`nolilik hodisasi: bosh 1-«kishi organizmining bo`yindan yuqori qismi» bosh 2-«miya» (Uning boshi yaxshi ishlaydi).

Grammatik polisemiya - grammatik birliklardagi ko`p ma`nolilik hodisasi: - o`zi qo`shilgan asos harakat yo`naltirilgan predmet ekanini bildiradi: Ukamga tikildim. O`zi qo`shilgan asos harakatni bajarishda maqsad bo`lgan predmet ekanini bildiradi: Ukamga (ukam uchun) oldim.

Bunday holatni biz ingliz tilidagi predloglarda ko`rishimiz mumkin:

To 1-ish-harakatni biror predmet yoki shaxsga yo`naltirilganligi:

They went to the Crimea;

Send him to the manager at once.

To 2-harakat yo`naltirilgan shaxs: The teacher explained this rule to the students. Lug`aviy polisemiya ikki turli:

1. **Leksik polisemiya**-leksemalardagi ko`p ma`nolilik hodisasi.

2. **Frazeologik polisemiya**-frazemalardagi ko`p ma`nolilik hodisasi: ko`zga ko`rinmoq 1-«tanilmoq», 2-«o`ziga diqqat e`tiborni jalb qiladigan bo`lmoq» kabi [1].

Misollar:

1) U kombinatning ko`zga ko`ringan ip yigiruvchisi edi.

2) Mana endi birgina tikilgani, ko`zlarining oq-u qorasi-Maynasi bo`yga yetib, ko`zga ko`rinib qoldi.

Leksik polisemiya. Hozirgi o`zbek adabiy tilidagi leksemalarning deyarli yarmi polisemantik.

Monosemiya yangi yaratilgan leksemaning hamda yangi o`zlashtirilgan leksemaning boshlang`ich ishlatilish davriga xos deb qaraladi (keyinchalik bunday leksema polisemantik bo`lib ketishi mumkin). Terminlar ham, odatda monosemantik bo`ladi. Har bir leksema yaratilishiga ko`ra monosemantik bo`ladi: biror predmet, belgi, munosabatning nomi sifatida yuzaga keladi. Keyinchalik u boshqa hodisalarga ham nom bo`lib xizmat qiladi, shu yo`l bilan o`z ma`nosini o`zgartiradi, taraqqiy ettiradi. Natijada leksema ma`nosida turli-tuman siljishlar yuz beradi, monosemantik leksema polisemantik leksemaga aylanadi.

Leksemaning ko`p ma`noliligini kontekst namoyon qiladi. Kontekst qanchalik rang-barang bo`lsa, bu leksemaning ma`nolari ham shunchalik ko`p bo`ladi. Bunda shu leksema bilan bog`lanib keluvchi leksemalarning oddiy miqdori emas, balki turli semantik yo`nalishdagi leksemalar bo`lishi hal etuvchi o`rin tutadi.

¹ Raxmatullayev SH. O`zbek tilining qisqa frazeologik lug`ati. - T.: Fan, 1974. 20-bet

Leksik polisemiya-ko`p qirrali va murakkab hodisa. Deyarli har bir leksemaning ma`no taraqqiyoti alohida-alohida yondashishni, izohlashni talab qiladi. Shu sababli leksik ma`nolarni aniqlash va sistemalash juda qiyin. Leksemaning ko`p ma`noliligi haqida aytiladigan umumiy fikrlar, odatda, leksik ma`no taraqqiyoti haqida tasavvur hosil etish uchungina xizmat qiladi.

Leksik ma`noning taraqqiyot yo`llari. Leksik ma`no odatda bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko`chirish yo`li bilan rivojlanadi. Bunday ko`chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o`zidagi semantik qonuniyatlar belgilaydi.

Ko`chirishlar asosan quyidagilar: metafora yo`li bilan ko`chirish, funksonal ko`chirish, metonimiya yo`li bilan ko`chirish, sinekdoxa yo`li bilan ko`chirish. Bir narsa, belgi, harakatning nomi boshqasiga o`zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o`xshashligi asosida ko`chirilsa, metafora yo`li bilan ko`chirish deyiladi.

Masalan o`zbek tilidagi «yo`l» leksemasini ko`rib chiqsak, u asli «o`tish joyi» ma`nosini anglatadi. Shakliy o`xshashlik asosida bu leksema «satr» («bir chiziq bo`ylab joylashtirilgan yozuv») ma`nosini ham anglata boshlagan.

Ingliz tilidagi «line» leksemasi asli «chiziq» («to`g`ri chiziq») ma`nosini anglatib, shakliy o`xshashlik asosida bu leksema «satr», «she`r» (4 qatorlik), «ajin» (yuzdagi chiziq), «arqon» ma`nolarini anglata boshlagan.

Metafora yo`li bilan ko`chirishning asosiy ko`rinishlari:

1. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga shakliy o`xshashlik asosida ko`chiriladi:

og`iz (odamning og`zi), og`iz (shishaning og`zi); qo`ltiq (odamning qo`ltig`i), qo`ltiq (dengizdagi qo`ltiq);

mouth (odamning og`zi), mouth (shishaning og`zi); etak (kiyimning etagi), etak (tog`ning etagi); foot (odamning oyog`i), foot (mebelning oyog`i).

2. Bir narsaga (ba`zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir narsadagi belgiga ko`chiriladi: achchiq (achchiq qalampir), achchiq (gap), sweet (sweet chocolate), sweet (sweet dream).

3. Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko`chiriladi: cho`kmoq (cho`kkalamoq), cho`kmoq (imoratning cho`kishi), cho`kmoq (odamning qariganda cho`kishi); o`lmoq (jonlilarda hayotning tugashi), o`lmoq (o`simlik palagining so`lishi) kabi.

Biror narsaning nomi boshqasiga ular bajargan vazifadagi o`xshashlik asosida ko`chirilishi funksional ko`chirish deyiladi. Funksional ko`chirish ham o`xshashlik asosida bo`ladi. Bu jihatdan u metafora yo`li bilan ko`chirishga juda yaqin turadi. Farq shundaki, metafora yo`li bilan ko`chirishda predmetlar orasidagi tashqi ko`rinishi jihatidan o`xshashlik asosga olinsa, funksional ko`chirishda vazifa jihatidan o`xshashlik nazarda tutiladi.

Masalan, qush tanasidagi uchish uchun xizmat qiluvchi a`zo «qanot» deyiladi. Shunga o`xshash vazifani bajaruvchi qism samolyotga nisbatan ham qanot deb nomlangan.

Bir narsa, belgi, harakatning nomi boshqa bir narsaga o`xshashlik asosida emas, balki o`zaro bog`liqlik asosida ko`chirilishi metonomiya yo`li bilan ko`chirish deyiladi. Masalan, dasturxon leksemasi «ovqatlanish uchun yoziladigan buyum»ni anglatadi. Bu leksema bilan ovqatning o`zi «dasturxonga qo`yiladigan noz-ne`mat» ham bildiriladi.

Metonomiya bilan ko`chirishning asosiy ko`rinishlari:

1. Bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko`chiriladi. Bosh (kishi organizmining bo`yindan yuqori qismi), bosh («miya»- Boshim og`riyapti); ich («ichki tomon»), ich («qorin bo`shlig`idagi a`zolar». Ichim og`riyapti); uy («imorat»), uy («uyda yashovchilar»: Butun uy yugurib chiqdi); hall («zal»), hall («zalda o`tirganlar»: The hall applauded).

2. Bir narsaning nomi shu narsaga asoslangan o`lchov birligining nomi bo`lib xizmat qiladi. Kun («quyosh»), kun («sutkaning yorug` qismi»); oy («planeta nomi»), -oy («yilning o`n ikkidan bir qismi»).

3. Bir narsaning nomi shu predmetdan hosil bo`ladigan predmetga ko`chiriladi: til («nutq a`zosi»), -til («nutq»); choy («o`simlik») -choy («ichimlik») kabi;

4. Belgining nomi shunday belgisi bor narsaga ko`chiriladi: ko`k (rang nomi), -ko`k («ko`kat»), -ko`k («osmon»); kir («iflos») -kir («ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak»); yupqa («qalinning aksi») -yupqa (taom nomi);

5. Harakatning nomi shu harakat natijasida hosil bo`ladigan narsaga ko`chiriladi: tuymoq-tuy, atalamoq-atala, ko`chmoq-ko`ch kabi (ba`zan qarama-qarshi ma`no ham tug`iladi: ko`rmoq-ko`r). Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko`chirilishi sinekdoxa yo`li bilan ko`chirish deyiladi.

Sinekdoxa yo`li bilan ko`chirish metonimiya yo`li bilan ko`chirishning bir ko`rinishi deb yuritiladi. Sinekdoxa yo`li bilan ko`chirishning o`ziga xos xususiyati miqdor belgisiga asoslanishdir. Sinekdoxa yo`li bilan ko`chirish ikki xil:

a) Bir narsaning nomi sifatida unga xos biror qismning nomi ishlatiladi (qism orqali butun anglatiladi): tuyoq (qism) -tuyoq (butun: Bahona bilan tuyoqqa ega bo`lib qoldi); tirnoq (qism) -tirnoq (butun: Dunyoda tirnoqqa zor odamlar oz deysizmi?!); yurak (qism) -yurak (butun: Bu otashin yurak...) kabi;

b) Bir predmetning nomi sifatida shu predmetni ham o`z ichiga olgan butunning nomi ishlatiladi (butun orqali qism anglatiladi); bosh (butun) -bosh (qism-«boshning ustki qismi»; «Do`ppi boshimga tor keldi»), qo`l (butun), qo`l (qism-«barmoq»: Besh qo`l barobar emas), panja (butun) -panja (qism-«barmoqlar: Besh panjangni og`zingga tiqma»), osh (umuman ovqat) -osh (palov) kabi.

Frazeologik polisemiya. Lug`aviy ma`noning taraqqiy etishi frazemalarga ham xos. Bir frazemaga xos ma`noning taraqqiyoti natijasida frazeologik ma`no asosida ikkinchi frazeologik ma`noning miqdori o`zgaradi. Bir frazeologik ma`no

asosida ikkinchi frazeologik ma`noning tug`ilishi ikki xil hodisa polisemiya yoki omonimiyaga olib keladi. Frazemalarning ko`pi monosemantik. Masalan, bahridan o`tmoq frazemasini «foydali deb bilgan narsadan voz kechmoq»ni, «berdi» sini aytguncha urib o`ldirmoq frazemasini «gapirib bo`lguncha kutmay (chidamay) biror narsa demoq»ni, daryodan bir tomchi frazemasini «qolgan qismiga nisbatan juda oz» ma`nosini anglatadi.

Polisemantik frazemalar ham anchagina bo`lib, bularning ko`pi ikki va uch ma`nolidir. Masalan, bosh(i) aylandi frazemasini ikki ma`nolidir: 1) «bexush bo`lmoq» 2) «esankiramoq»; Bosh suqmoq frazemasini uch ma`noni anglatadi: 1) «gavdasi tashqarida qolib, boshini tikkan holda qaramoq» 2) «kirmoq» 3) «aralashmoq»; Bosh ko`tarmoq frazemasini esa quyidagi to`rt ma`noni anglatadi: 1) «qaramoq» 2) «qilib turgan ishini to`xtatmoq» 3) «qo`zg`almoq», «harakatga kelmoq» 4) «kurashga chog`lanmoq». Oxirgi frazemaning ishlatilishiga misollar:

- 1) «Pochchayev,-deb bosh ko`tardi Elchibek,- Sizing kasbingiz nima?» (A. Muxtor)
- 2) Safarali stoldan bosh ko`tardi, haligi rus qiziga bir nima deb kuldi. (Oydin)
- 3) Qishloqda el erta yotadi, chunki quyoshdan oldin bosh ko`taradi. (I.R)
- 4) Bosh ko`targan xalqni mardlikka yetaklagan kosib Sanjar Malikning nafasi pok shabadaga qanot bo`lmoqda. (Sh. Toshmatov)

Endi esa ingliz tilidagi polisemantik frazemalarni ko`rib chiqsak: to feed the fishes quyidagi ma`nolarga ega: 1) cho`kmoq 2) dengiz kasaliga chalinmoq; to give way frazemasini esa 4 ma`noni anglatadi: 1) chekinmoq 2) joy bermoq 3) kasallanmoq 4) narxini pasaytirmoq, tushirmoq.

Frazeologik polisemiya deganda frazemaning o`zi ikki va undan ortiq lug`aviy ma`no anglatishi tushuniladi. O`zaro shaklan o`xshash bog`lanmadan va frazmadan anglashiladigan ma`nolar bir nuqtaga birlashtirilib, polisemiya deb qaralmaydi. Chunki bular har xil hodisalardir: erkin bog`lama-nutq birligi, frazema-til birligi. Masalan, aravani quruq olib qochmoq erkin birikmasi nutqda

tuzib ishlatiladi, shu bilan birga tilda aravani quruq olib qochmoq frazemasi ham bor [1].

Birinchidan to`g`ri ma`no, ikkinchisidan ko`chma ma`no («uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq») anglashiladi. Bu ma`nolarni bir til birligi emas, balki ikki har xil til hodisalarni anglatgani sababli polisemiya voqe' bo`lmaydi. Yuqoridagicha munosabat (erkin bog`lanma bilan frazemaning shaklan teng kelish hodisasi) omonimlik deb yuritiladi.

Frazemaning lug`aviy ma`nosi birdan ortiq bo`lsa, xuddi leksemalarda qilinganidek, bosh ma`no va hosila (ikkinchi) ma`no belgilanadi. Masalan, «jar solmoq» frazemasida «jarchi vositasida eshittirmoq» (bu-eski ma`noga aylangan), «keragidan ortiq darajada bo`rttirib xabar tarqatmoq» ma`nolarni anglatadi.

Birinchisi-bosh ma`no, ikkinchisi shundan o`sib chiqqan hosila ma`no.

«Bino qo`ymoq» frazemasida uch ma`noli: 1) «ortiqcha baho bermoq» 2) «qiyofasiga alohida e`tibor bermoq» 3) «e`tiqod bilan qaramoq». Bu frazemaning ikkinchi, uchinchi ma`nolari birinchi ma`nosidan o`sib chiqqan:

“Tili chiqdi” frazemasida esa frazeologik ma`nolarning bog`lanishi o`zgacha: 1) «nutqqa ega-bo`lmoq» 2) «indamay yurgan kishi gapiradigan bo`lib qolmoq» 3) «aytishadigan bo`lmoq». Bu ma`nolarning bog`lanishi:

Demak, birinchisi-bosh ma`no, uchinchisi-hosila ma`no, ikkinchisi esa avvalgi ma`noga nisbatan hosila ma`no, keyingisiga nisbatan bosh ma`no (nisbiy bosh ma`no).

Leksemada bosh leksik ma`no, odatda, to`g`ri ma`no bo`ladi. Frazemada esa bosh frazeologik ma`no ko`chma ma`no bo`ladi. Chunki frazemaning bosh ma`nosi ham, hosila ma`nosi kabi, ustama ko`chma ma`no tarzida gavdalanadi, ma`lum obrazga asoslanadi. Demak, frazemaning tabiati to`g`ri ma`noni istisno qilib qo`yadi.

Polisemantik frazemada lug`aviy ma`noni va uning taraqqiyotini semik tahlil metodikasi bilan o`rganish bu hodisalarni ravshanroq tasavvur qilish imkonini

¹ Raxmatullaev Sh. O`zbek tilining qisqa frazeologik lug`ati. - T.: Fan, 1974. 20-bet

beradi. Masalan, ko`ngli aynidi-ikki ma`noli frazema. Bu frazemaning birinchi ma`nosi uchun semalarni quyidagicha belgilash mumkin: fe'l bo`lgani sababli, avvalo «ta`sir ko`rsatmoq» semasini belgilaymiz. Ta`sir ko`rsatish «ijobiy va salbiy» bo`ladi. Bu ta`sir kishi «organizm»ida namoyon bo`ladi. Ta`sir etuvchi-«jism», aniqrogi «ovqat», shu sababli «organizm»ni aniqroq qilib «ovqatlanish a`zolari» deb belgilaymiz. Ovqatlanish a`zolariga ovqatning ta`siri «jismoniy» bo`ladi. Yuqorida ajratilgan semalar yig`indisi shunday tartiblanadi: «ovqatlanish a`zolari» + «jismoniy» + «salbiy» + «ta`sir ko`rsatmoq». Ana shu semalar asosida bu frazeologik ma`noni «organizm qabul qilmagani tufayli behuzur bo`lmoq» deb ta`riflaymiz.

«Ko`ngli aynidi» frazemasining ikkinchi ma`nosi birinchi ma`nosidan o`sib chiqqan. Yangi ma`no bu frazemani ovqatdan boshqa narsaga ko`chirib ishlatish natijasida yuzaga kelgan. Bunday ko`chirish tufayli birinchi ma`no tarkibidagi «salbiy», «ta`sir ko`rsatmoq» semalari saqlanadi, ovqatdan boshqa narsaga qarata ishlatilishi sababli «ovqatlanish a`zolari» («organizm» semasi) «hissiyot semasiga almashadi, shu bilan birga, «jismoniy» semasi ham «ruhiy» semasiga almashadi. Natijada shunday semalar yitimi voqe' bo`ladi: «hissiyot» + «ruhiy» + «salbiy» + «ta`sir ko`rsatmoq». Ana shu semalar yig`imi asosida bu frazeologik ma`noni «tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg`anmoq» deb ta`riflaymiz. Ko`rinib turibdiki, bu frazemada ma`no taraqqiyoti konkretan mavhuma tomon yo`nalishda voqe' bo`lgan.

Frazeologik ma`nolar ham, xuddi leksik ma`nolarda bo`lganidek, o`ziga xos kontekstda namoyon bo`ladi. Polisemantik frazemaning ma`nolari o`zaro, lug`aviy ma`nosidan tashqari, leksik kontekstda, grammatik tabiatida farqlanib turishi mumkin. Masalan, boy bermoq frazemasini uch lug`aviy ma`noni anglatadi: 1) «yutqizmoq» 2) «yo`qotmoq», «behuda, befoyda o`tkazmoq» 3) «oshkor qilmoq». Har uch ma`no turlicha leksik kontekstda namoyon bo`ladi: birinchisida qimorni, garovni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida vaqtni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi. Misollar:

1. Ukaning hech haqi yo`q, hovlidan bo`ladigan tegishini ham sotib, qimorga boy bergan.

2. Shunday qilib, bahorda boy bergan o`n besh kunni ham qaytarib oldik.

3. Kulgiga to`lib turganlar endi sir boy berib qo`ygan.

Ko`rinib turibdiki, bu frazemaning lug`aviy ma`nolarida leksik kontekst farqli, ammo grammatik tabiat bir xil.

Mana bu frazemaning lug`aviy ma`nolarida leksik kontekst ham, grammatik tabiat ham farqli: ketiga tushmoq;

1) «zimdan yurib butun hatti-harakatini ta`qib etmoq»

2) «manfaatdor bo`lgani holda berilib harakat qilmoq»

Har ikki ma`nosida harakatni kishi bajaradi, lekin harakat qaratilgan predmet boshqa-boshqa bo`ladi: birinchisida kishiga (kimning), ikkinchisida esa narsaga (nimaning) qaratiladi. Shu sababli bu ma`nolarning leksik konteksti ham, grammatik tabiati kam farq qiladi.

Qaratqich kelishigidagi kishini bildiruvchi leksemaning kelishi birinchi ma`noda har uch shaxs-son nisbatlovchisini ishlatishga yo`l ochadi; shunday vazifada narsani anglatuvchi leksemaning kelishi esa faqat III shaxs nisbatlovchisining qatnashuviga sabab bo`ladi.

Natijada bu ikki frazeologik ma`noning grammatik tabiati farqlanib qoladi. Birini ma`nosida “ketidan tushdim, ketidan tushding, ketidan tushdi, ketingdan tushdim, ketingdan tushdi, ketimdan tushding, ketimdan tushdi” kabi shakllarda ishlatilsa, ikkinchi ma`nosida shularga muqobil shakllardan uchtasidagina keladi: ketidan tushdim, ketidan tushding, ketidan tushdi [1].

¹ Raxmatullaev, SH. O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati. - T., 1978. 19-bet

I bob bo'yicha xulosa

Soʻz - bu predmet, holat, belgi, harakatning nomlanmasidir.

Soʻz oʻz va koʻchma maʼnoga ega. Soʻz oʻz maʼnosida predmet yoki holat bilan maʼno jihatidan mos keladi: head-bosh, heart-yurak.

Soʻzning koʻchma maʼnosida bir soʻzning boshqa bir soʻzga, holatga, harakatga oʻxshashlik asosida koʻchirish orqali yuz beradi.

Polisemiya til uchun muhim ahamiyatga ega.

Zero, tilda yangi soʻz hosil qilish oson emas.

Polisemiya esa yangi maʼno kasb etib, tilning lugʻaviy boyligini boyitib boradi.

Polisemantik soʻzlarning tizimi asrlar davomida shakllanib, yangidan yangi maʼnolar vujudga kela boshladi.

II BOB

INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA SO`ZLARNING KO`P MA`NOLILIGI

1. INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA «KO`Z» SO`ZINING KO`P MA`NOLILIGI

Bir predmet shakli boshqa birorta predmetga aynan o`xshashligi natijasida oldin vujudga kelgan predmet nomi keyingisiga o`tib nomdosh so`zlar vujudga keladi.

«Ko`z» dastlabki ma`noda «ko`rish organi» demakdir. Sirdan qaraganda uzukka o`rnatilgan rangli tosh ham, taxta yoki o`simlikning butoqli joyi ham, buloqning suv qaynab chiqayotgan nuqtasi ham shaklan kichik va dumaloqligi, atrofdan ma`lum bir jismlar bilan o`rab olinishiga ko`ra dastlabki nom bilan atalgan.

“Yaraning ko`zi, tizzaning ko`zi” kabilar shubhasiz, shakl o`xshashligidan yuqoridagi nomni o`ziga olgan.

Biz «ko`z» so`zini 2 tilda, ya`ni ingliz va o`zbek tillarida o`rganar ekanmiz, uning ikki tilda mavjud o`xshashlik va farqlarini aniqladik.

Ya`ni bu ikki tildagi birinchi bir necha ma`no o`xshash, lekin bir tildagi bir tushuncha qolgan tillarda «ko`z» so`zi bilan emas, balki boshqa tushunchalar orqali ifodalangan.

Demak, ular o`z leksik ma`nolari sistemasida o`ziga xos o`xshashlik va farqlarga ega.

Masalan, «ko`rish organi», «ko`rish qobiliyati», «nazar, nigoh, qarash», «nazorat» kabi tushunchalar uch tilda ham mavjud va ular «ko`z» so`zining asosiy ma`nolari hisoblanadi.

Lekin, keyinchalik «markaz», «fikir», «ignaning ip o`tkazadigan joyi» va hokazo tushunchalarning ifodalanishi farq qiladi. Buni biz quyidagi jadvalda ko`rsatishga harakat qildik:

| № | Ma`no | Ingliz tili | O`zbek tili |
|-----|--------------------------------------|--|--|
| 1. | <i>Ko`rish a`zosi</i> | We see with our eyes | Bobomning ko`zi hali yaxshi ko`radi |
| 2. | <i>Ko`z oqi</i> | There were great ears, swollen nose, thick lips, and, above all, <i>red eyes</i> (T.Dreiser. Sister Carrie) | Charchaganimdan <i>ko`zlarim qizarib ketdi.</i> |
| 3. | <i>Ko`z qorachigi</i> | Blue eyes Carrie looked into her pretty face, with its large <i>blue eyes</i> (T.Dreiser. Sister Carrie) | Ko`k ko`z Bolaning oq-sargish yuzi, <i>ko`zining ko`kimtirliigi ...</i> xuddi Shayboniyxonga o`xshardi (P.Qodirov "Yulduzli tunlar") |
| 4. | <i>Ko`rish qobiliyati</i> | Sharp eye "Did she see you?"she asked."If she had <i>eyes</i> , she did. (T.Dreiser) | Ko`zi o`tkir Agar unda <i>ko`z</i> bo`lsa meni ko`rgandir, -javob berdi Gerstvod.(T.D) |
| 5. | <i>Nigoh, qarash, nazar</i> | When he looked at his fine clothes, he saw them with her <i>eyes</i> (T.D) | O`zining ust-boshiga Kerrining <i>ko`zlari</i> bilan qarar edi.(T.D) |
| 6. | <i>Ko`z qovog`i</i> | Black eye, puffy eyes He contented himself with wetting his <i>eyes</i> with the ice-cold water. (T.D) | Qizargan ko`z, shishgan ko`zlar Kosimbek bolaning <i>yarim ochiq kulgan ko`zlarini</i> yummoqchi bo`lib, qoshlarini siladi. |
| 7. | <i>Nazorat</i> | Museum is always under the eye of a guard. | Jaynokni ko`zingiz ostiga oling.(N.Safarov. Uyg`onish) |
| | <i>Kartoshka kurtagi</i> | <i>Eye of a potato</i> | <i>Kartoshkaning ko`zi</i> |
| 9. | <i>Tovus dumidagi aylana shakl</i> | <i>Eyes of a peacock's tail</i> | Tovus dumidagi tangachalar |
| 10. | <i>Quyosh</i> | <i>Eye of a day</i> | Quyosh |
| 11. | <i>Ignaning ip o`tkazadigan joyi</i> | <i>Eye of a needle</i> | <i>Ignaning ko`zi</i> |
| 12. | <i>Fikr, nuqtai-nazar</i> | <i>In my eyes</i> | <i>Mening nazarimda</i> |

Ingliz tilida "eye" leksemasi orqali ifodalaniladigan tushunchalarning o`zbek tilida berilishi:

| | | | |
|----|---|----------------------------------|-------------------------------|
| 1. | <i>Kuzatmoq</i> | <i>He eyed me with suspicion</i> | U meni shubhali kuzatar edi |
| 2. | <i>Arqon O`tkazgich</i> | <i>Eye</i> | Halqa |
| 3. | <i>Kiyimning tugma o`tkazadigan joyi</i> | <i>Eye</i> | Izma |
| 4. | <i>Markaz</i> | <i>In the eye of the storm</i> | Dovulning o`rtasi (markazi)da |
| 5. | <i>Boltaning dasta o`tkaziladigan joyi</i> | <i>Eye of an ax</i> | Boltaning teshigi |
| 6. | <i>Pishloq tayyorlashda hosil bo`ladigan teshikchalar</i> | <i>Eye of a cheese</i> | Pishloq g`ovakchalari |
| 7. | <i>Biror narsani aniqlab berish uchun yollanadigan kishi</i> | <i>Private eye</i> | Izquvar |

O`zbek tilida "ko`z" leksemasi orqali ifodalaniladigan tushunchalarning ingliz tilida berilishi:

| | | | |
|----|---|-------------------------|-----------------------|
| 1. | <i>Taxtadagi aylana shakl</i> | <i>Taxtaning ko`zi</i> | Twig on a board |
| 2. | <i>Deraza oynasi</i> | <i>Derazaning ko`zi</i> | A part of the window |
| 3. | <i>Uzudagi tosh</i> | <i>Uzudning ko`zi</i> | The stone of the ring |
| 4. | <i>Buloqning suv chiqadigan joyi</i> | <i>Buloqning ko`zi</i> | The source of well |
| 5. | <i>Yaraning ochiq joyi</i> | <i>Yaraning ko`zi</i> | A perture of abscess |
| 6. | <i>Tizza to`pig`i</i> | <i>Tizzaning ko`zi</i> | Fibula |

Biz yuqoridagi «ko`z» so`zining polisemantik ma`no qirralarini taqqoslashda, albatta ingliz va o`zbek tillarining izohli lug`atidan foydalandik.

Birinchi bo`lib ingliz tilining lug`atda keltirilgan ma`nolarini ko`rib chiqsak. Oxford English-Russian Dictionary dan «ko`z» leksemasini topganimizda uning atigi 11 ta ma`nosi berilganligining shohidi bo`ldik. Ular quyidagilar:

1. Ko`rish organi;
2. Qarash, nigoh;
3. Fikr;
4. Quyosh;
5. Ignaning ip o`tkazadigan joyi;
6. Markaz (in the eye of the storm);
7. Petlya (xalqa) (hooks and eyes);
8. Kartoshkaning kurtakchalari;
9. Kuzatmoq;
10. Tovus dumidagi aylana shakllar;
11. Izquvar (private eye-shaxsiy izquvar);

Webster's College Dictionary da esa «ko`z» leksemasining 28 ta semasi berilganligining guvohi bo`ldik:

1. The organ of sight;
2. The visible parts of this organ, as the cornea, iris and pupil, and the surrounding eyebrows, eyelids and eyelashes;
3. This organ with respect to the colour of the iris: blue eyes;
4. The region surrounding the eye: a black eye; puffy eyes;
5. Sight, vision: a sharp eye;
6. The power of seeing: appreciative or discriminating visual perception: the eye of an artist;
7. A look, glance, gaze: to cast one's eye upon a scene;
8. An attentive look; observation under the eye of a guard;
9. Regard, view, aim or intention: to have an eye to one's own advantage;

10. Judgement; opinion; in the eyes of a law;
11. A center, crux: the eye of an issue;
12. Smth suggesting the eye in appearance; as the opening in the lens of a camera, a peephole or a buttonhole;
13. A bud, as of a potato or other tuber;
14. A small, contrastingly colored part at the center of a flower;
15. A useless, muscular section of a cut of meat;
16. A roundish spot as on the feather of a peacock;
17. The hole in a needle;
18. A hole in a thing for the insertion of some object, as the handle of a tool:
the eye of an ax;
19. A metal or other ring through which smth, as a rope passed;
20. The loop into which a hook is inserted;
21. A photoelectric cell or similar device used to perform a function
analogous to visual inspection;
22. The direction from which a wind is blowing;
23. A hole formed during the maturation of cheese;
24. The region of lighter winds and fair weather at the center of a tropical
cyclone;
25. To look at; view; to eye the wonders of nature;
26. To watch carefully: he eyed me with suspicion;
27. To make an eye in: to eye a needle;
28. To appear; seem

O`zbek tilining izohli lug`atida esa «ko`z» leksemasining 9 ta ma`nosi berilgan:

1. Tirik mavjudotning ko`rish organi;
2. Ko`z kosasi, ko`z oqi, ko`z qorachig`i;
3. Nazar, nigoh, qarash;
4. Ko`rish qobiliyati;
5. Derazaning ko`zi;

6. Yog`ochning ko`zi;
7. Buloqning ko`zi;
8. Uzukning ko`zi;
9. Xurjunning ko`zi [1].

Biz uch tildagi lug`atlarni ko`rib chiqqanimizda «ko`z» so`zining leksik, frazeologik va so`z birikmalardagi ko`plab ma`nolari mavjudligini aniqladik.

Unga ko`ra: «eye» so`zining ingliz tilida 75 dan ortiq, «ko`z» so`zining o`zbek tilida 53 dan ortiq, «глаз» so`zining rus tilida 40 dan ortiq ma`nolari borligiga shohid bo`ldik.

Demak, yuqoridagi fikrimizdan shu narsa ma`lum bo`ldiki, «ko`z» leksemasi uch tilda ham bir xil ma`noga ega emas. Lekin shunga qaramay o`xshashliklarga ham egadir.

Quyida «ko`z» leksemasining nutqdagi ma`nolarini bog`liq qurshov nuqtai-nazaridan ko`rib chiqamiz:

Birinchi ma`no (ko`rish organi)da ko`z so`zi inson (yoki hayvon) tana a`zolarining birinchi - ko`rish a`zosini ifodalab kelgan.

Bizning ongimizda «ko`z» leksemasi eng avvalo, aynan mana shu mazmuni, ifodalanishi bilan aks etadi.

Demak, «ko`z» leksemasi sememasi «narsa», «tana a`zosi» va «ko`rish vositasi» kabi asosiy, yetakchi atash semalari birikmasidan iboratdir. «Ko`z» leksema sememasi shu ma`nosiga ko`ra ko`plab leksemalar bilan erkin qurshovda, erkin birikishda bo`ladi. Binobarin, shu so`z bilan birika oladigan leksemalar mazmunan turlicha, miqdoran esa juda ko`pdir. Masalan, (qo`yning ko`zi) so`z birikmasi qolipida «ko`z» so`zi o`zidan oldin keluvchi va jonli mavjudotlarni ifoda etuvchi minglab, yuzminglab leksemalar, yasama so`zlar, so`z birikmalari bilan birika oladi.

¹.O`zbek tilining izohli lug`ati II tomlik 1-2-tom. - M., 1981.

Masalan, «odamning ko`zi», «Salimanning ko`zi», «qorong`ida uzoq muddat yashaganning ko`zi», «ilonning ko`zi» va hokazo.

«Ko`z» leksemasi bunday erkin qurshovlarda «jonli (tirik) mavjudotning ko`rish vositasi, quroli» kabi mazmun munosabati bilan ishtirok etadi.

[ot+ot] birikmasi birinchi-tobe bo`lak vazifasida jonli narsalarning nomi kelsa, «ko`z» so`zi boshqacha ma`noga ega bo`ladi: jumladan, «taxtaning, yog`ochning ko`zi», «derazaning, oynaning ko`zi», «buloqning, quduqning ko`zi», «xurjunning ko`zi» va hokazo.

Bu birikmalarda ko`z so`zining ma`nosi bir xil emas.

Chunki, birinchidan, so`z birikmalarida «ko`z» so`zi bir xil ma`noda qo`llangan emas.

Ikkinchidan, minglab narsalarda «muayyan belgisi bilan ajralib turadigan qism yoki bo`lak» behisobdir. Ularni «ko`z» so`zi bilan atab bo`lmaydi.

Masalan, choynakning dastasi, qorni, jumragi, ichi; devorning yorig`i, mo`rining tuynugi va hokazo.

Uchinchidan, yuqorida qayd etilgan «ko`z» so`zi ma`lum miqdordagi chegaralash mumkin bo`lgan so`zlar bilangina birikadi. Bu so`zlar: taxta, yog`och, deraza, oyna, buloq, quduq, uzuk, xurjun kabilardir.

Shuni ham eslatib o`tamizki, hatto «uzuk» leksemasi bilan bir qatorda turuvchi «bilakuzuk», «zirak» leksemalari bizga ma`lum nuqtai nazaridan «ko`z» leksemasi bilan bog`lanib, «bilakuzukning ko`zi», «zirakning ko`zi» kabi so`z birikmalarini hosil qila olmaydi.

Shuning uchun ko`z so`zining yuqorida sanalgan (taxta, yog`och va hokazo) so`zlar bilan hosil qiluvchi qurshovi, bu qurshovdagi ma`nosi bog`liq, belgilangan so`zlar ta`siri ostidagina voqelashib, nutq sharoiti bilan uzviy bog`liq bo`ladi.

Demak, «ko`z» leksemasida ajratilgan «ko`rish quroli» yetakchi, asosiy bosh sememasi bilan birga faqat muayyan so`zlar qurshovida (bog`liq qurshovda) yuzaga chiqadigan muayyan predmetlarning (yog`och, taxta, xurjun) ko`zga o`xshash belgilarga ega bo`lgan qismi semema turini ham alohida qayd etish

mumkin. Sememaning ushbu turining nutqda yuzaga chiqishi uchun kichik matn, bog`liq qurshov bo`lishi lozim.

«Ko`z» leksema sememasining bu turi bilan uning (leksemaning) asosiy, yetakchi sememasi orasida ma`lum bir o`xshashliklar (odamning ko`zi-taxtaning ko`zi-buloqning ko`zi) mavjud.

Masalan, «butunning qismi», «doira shaklida», «ajralib turadigan», «yoriq, o`yiq shaklda» va hokazo shular jumlasidandir. Shunga ko`ra sememaning bu turi asosiy, yetakchi sememadan o`xshatish (metafora) usuli bilan hosil bo`lgandir.

Ammo «ko`z» sememasining bu turi voqelikdagi, bog`liqlikdagi narsa-buyumlarning o`zbek tilidagi yakkayu-yagona mavjud izohi atamasidir. Shu narsa, buyum o`zbek tilida boshqacha nom bilan atalmaydi. U boshqa tillarda, ko`pincha, alohida-alohida so`zlar orqali beriladi. Jumladan; «ko`z» - «глаз», «глазное яблоко», «quduqning ko`zi» - «источник колодца».

Demak, [ot+ot] qolipidagi so`z birikmalarida hokim bo`lak vazifasida ko`z» so`zining kelish hollari yuzasidan o`tkazilgan tahlil «ko`z» leksemasida ikki ma`no turini ajratish imkonini beradi:

A) Bosh, asosiy, yetakchi sema: «Tirik mavjudotning ko`rish quroli bo`lgan a`zosi».

B) Muayyan narsa-buyumlarning (taxta, yog`och, deraza; oyna, buloq, quduq, uzuk, xurjun...) ko`zga o`xshash qismi.

«Ko`z» leksemasi belgi-xususiyatlarni ifodalovchi asliy sifatlar bilan ham birikadi. Shunga muvofiq u bunday birikmalarda yangicha ma`no xususiyatlariga ega bo`ladi. Masalan:

a) Katta ko`z, kichik ko`z

b) Qora ko`z, ko`k ko`z

v) Sariq ko`z, qizil ko`z.

Bu misollarda «ko`z» leksemasi uchta yangi ma`no xususiyatlarini (turini) namoyon etgan:

1. Ko`z soqqasi

2. Ko`z soqqasining o`rtadagi qorachiq atrofida joylashgan ma`lum bir rangga (qora, qo`ng`ir, moviy, ko`k, yashil...) ega bo`lgan qismi, ko`z qorachig`i; ko`z soqqasining odatdagi oq rangli qismi, ko`z oqi.

Ko`z leksemasining bu ma`no turi ham bog`liq qurshovda muayyan so`zlar doirasida:

a) ko`z o`yig`i,

b) ko`z qorasi,

v) ko`z oqi voqelashib, ushbu leksemaning asosiy, yetakchi sememasi bilan butun-bo`lak va yonma-yonlik munosabatlari orqali bog`lanadi. Bunday holda «ko`z» leksema sememasi turlari orasidagi ma`no bog`lanishlari saqlanadi.

Quyida «ko`z» leksema sememasining ajratilgan ma`no turlariga to`xtalamiz.

Ushbu leksema sememasining bu turlarini avvalgilari bilan umulashtirsak, bu holda «ko`z» sememasining 5 turini ajratish imkoni tug`iladi:

1. bosh, yetakchi semema: «ko`rish quroli»

2. «muayyan narsalarning ... bo`lagi»

3. «ko`z soqqasi»

4. «ko`zning ma`lum bir rangdagi (qora, qo`ng`ir, moviy, ko`k, yashil) qismi, ko`z qorasi»

5. «ko`z soqqasining odatdagi oq rangli qismi, ko`z oqi».

«Ko`z» leksemasi nafaqat ot va asliy sifatlar bilan, balki qator nisbiy sifatlar bilan ham birikadi. Masalan:

1) ochiq ko`z, yumuq ko`z, qisiq ko`z

2) o`tkir ko`z

Bunday bog`liq qurshovlarda «ko`z» leksema sememasining yana ikki ma`nosini farqdash mumkin:

1. ko`z o`yig`i (qovoqlar oralig`i)

2. ko`rish qobiliyati.

Shunday qilib «ko`z» leksema sememalarining jami miqdordan yettitaga etkaziladi.

«Ko`z» leksemasi juda ko`p fe`llar bilan ham birikib keladi. Bunday qurshovlar ham erkin va bog`liq qurshovlar hisoblanadi. «Ko`z» leksemasi o`zining asosiy, yetakchi sememasi ko`rish a`zosi asosida shu a`zoga xos bo`lgan harakatlardan ifodalovchi nigoh fe`llarga birikib, ular bilan birgalikda erkin qurshovda ishtirok etadi:

Uning ko`zlari ma`yus boqardi. Bola o`ziga tikilgan ko`zlarni ko`rdi. (S.Ahmad).

Ko`rinib turibdiki, bu misollarda «ko`z» sememasining bosh, yetakchi semasi voqelashgan. «Ko`z» leksemasi qator fe`llar bilan bog`liq qurshovlarni hosil qiladi. Buni quyidagi jadval orqali aks ettirish mumkin:

| Semema turi | Bog`liq; qurshov |
|---------------------------|--|
| <i>Ko`z o`yig`i</i> | Ochmoq, yummoq, qismoq, kengaymoq, toraymoq... |
| <i>Ko`z soqqasi</i> | Uynamoq, chaqnamoq, porlamoq, yaltiramoq.. |
| <i>Ko`z oqi</i> | Qizarmoq, sarg`aymoq, ko`karmoq... |
| <i>Ko`z qirrası</i> | Joylashmoq, qiysaymoq, g`ilaylamoq |
| <i>Ko`rish qobiliyati</i> | Xiralanmoq, zaiflashmoq, yaxshilanmoq, zo`raymoq, kuchaymoq. |

«Ko`z» leksemasining fe`lli qurshovlardagi - bog`liq; qurshovlardagi semema ko`rinishlari yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi.

Jumladan, (tashlamoq), (solmoq), (tushmoq), (tinmoq) kabi fe`llar bilan kelgan «ko`z» leksemasi sememaning boshqa turlarini: «nazar», «nigoh», «qarash» ma`nosini voqelantiradi: Yig`itning ko`zi yonidagi qizga tushdi.

Ko`z leksemasidan chiqish kelishigi va uzoqlashmoq, yiriklashmoq, chetda bo`lmoq, yo`qolmoq kabi fe`llar bilan birikib, yangi ma`no turini kashf etadi.

Masalan: ko`z leksemasi: ko`zi och-ochko`z, xasis, ziqna; ko`zi yoridi-yengil bo`ldi, farzand ko`rdi, tug`di; ko`z yumdi-o`ldi, vafot etdi kabi yuzlab iboralar tarkibida «ko`z» so`zi mustaqil ma`noga ega emas.

Barqaror (doimiy) qurshov shaklan va qurilishi jihatidan bo`linuvchan bo`lsada, ma`no, mazmun jihatidan turg`un, bo`linmas til birligi, alohida semema sifatida yuzaga chiqadi.

Shuning uchun barqaror (doimiy, turg`un) qurshovlardagi ma`nolar «ko`z» leksemasining mazmun tizimiga kirmaydi. Turg`un qurshovli «ko`z» leksemasi bilan omonimlik (shakldoshlik) munosabatlariga kirisha oladi.

«U ko`zini yumdi» gapi o`zbek tilida uchta ma`no beradi:

1. Kimdir ko`zlarini (qovoqlarini) yopdi;
2. Kimdir (kingadir) e`tibor bermadi;
3. Kimdir vafot etdi.

Ko`z leksemasining mazmun tizimi yuqorida aytilganlar bilan chegaralanmaydi. Bu leksemada yana bitta semema ajralib turadi. Bu «zarar-zaxmat», «ziyon» semasidir. Ko`z leksemasi tarkibidagi ayni semema yetakchi, asosiy emas. Ushbu sememaning qo`llanish doirasi ham, ko`lami ham, qurshovi ham chegaralangan, ya`ni tordir. Ammo bu semema (ko`z II) avvalgi semema bilan (ko`z I) ayni bir qurshovida kela oladi va ma`no farqlaydi.

1. Ko`zga ta`sir etmadi —► kasal ham bo`lmadi
2. Unga ko`zdan ko`p ziyon bo`ldi. (ya`ni ko`z tegishidan va har qayoqqa huda-behuda qarayverishdan);
3. Buning ko`zi yo`q, qo`rqmang: (1) ko`zi yo`q-ko`ra olmaydi (2) ko`zi tegmaydi, ziyon keltirish xislati yo`q.

Albatta, (ko`z II) sememasi bilan (ko`z I) sememasi orasida qandaydir tarixiy (rasmiy, umumiy, xurofiy) aloqadorlik nolisoniy omil hisoblanadi.

O`zbek tilining tizimida bu sememalar bir leksemaning turli sememalari sifatida qaralishi lozim. Ammo ayni vaqtda ular omonimlik, ya`ni bir-biridan

batamom uzilish darajasiga yetgan emas. Demak, ko`z leksemasining tizimida ikki sememani:

1) asosiy, yetakchi bir necha ma`no turiga, keng qo`llanish doirasiga ega sememani;

2) kam tarqalgan, qo`llanish doirasi chegaralangan sememani ajratish mumkin.

«Ko`z» leksemasining mazmun tizimida ko`rib o`tilgan asosiy sememaning bosh, yetakchi va mazmuniy turlarida o`zgarishlar ko`pincha atash semalari doirasida sodir bo`lgan edi.

Masalan, «yog`ochning ko`zi» va qizning ko`zi birikmalarida sememaning ikki mazmun turi 2 xil anglatilishni (denotatni) bildirib kelayapti. Ya`ni ular atash semalarining tarkibiga ko`ra farqlanib turibdi. Ammo ayni vaqtda ifoda va vazifa semalari tarkibida o`zgarish sodir bo`lgani yo`q. Shuningdek, leksemaning mazmun tizimi nafaqat atash semalaridagi, balki undan keyingi semalaridagi o`zgarishlar ham, bu o`zgarishlar asosida semema turlarini va hatto yangi semalarni ham rivojlantirish mumkin.

Endi esa ingliz va o`zbek tillarida «ko`z» so`zining ma`noviy munosabatlari va semantik qurshovini ko`rib o`tsak:

1. **Ko`z tikmoq-** a) davomli ravishda qaramoq, qarab tikilib turmoq:

M: Kumush bir hovuch suv olib yuzidan to`kib tushirdi va ohistagina yo`lak tomonga qarab olgandan keyin, suvning oqishiga ko`z tikdi; b) (ko`chma) umid bog`lamoq. M: U yolg`iz o`g`liga ko`z tikkan;

2. **Ko`zi tushmoq-** bexosdan ko`rib qolmoq. M: Mening kitobimga ko`zingiz tushmadimi?;

3. **Ko`z yugurtirmoq-** tezgina qarab (yoki ko`rib) chiqmoq.

M: Yo`lchi atrofiga ko`z yugurtirib, qiz tomon ikki-uch qadam bosdi. (Oybek “Qutlug` qon”);

4. **Ko`zi och** - boriga qanoatlanmaydigan, qizg`anchiq; ochko`z;

5. **Ko`zi tor** – o`zgaga hech narsani ravo ko`rmaydigan, ziqna, baxil.

M: O`zlariyam o`lguncha ko`zi tor, ziqna,- dedi Latip (G`.G`ulom “Shum bola”);

6. **Ko`zi ochiq;** - a) ishning mohiyatiga tushunadigan; foyda-ziyonni ajrata biladigan. M: Yaralarimizga, dardlarimizga malham qidirgan va olamdan xabardor, ko`zi ochiq odamlarimiz bor. (Oybek “Qutlug` qon”); b) o`lmagan, hayot M: Qizingni ko`ndir, ko`zing ochig`ida erga tegsin (I. Rahimov “Ixlos”);

7. **Ko`zi qattiq** - kishiga tikilib qaraydigan, uyalmaydigan; hayosiz.

M: Biroq, qiz qurg`ur ota-onasiga o`xshamaydi-da, ko`zi qattiq, tili tez, dimog`dor qiz bo`libdi. (Oybek “Oltin Vodiydan shabadalar”);

8. **Ko`z bo`yamoq** – o`z foydasi uchun faktlarni bosib, noto`g`ri ko`rsatmoq, boshqalarni aldamoq. M: Mexmonlardan biri, yosh bolalarni to`plab she`r o`qib berayotgan bir juvonga ta`na qildi: - Musobaqada ko`z bo`yash bilan yutgan ekansiz-da, To`tixon! (A. Qahhor “Mirzo”);

9. **Ko`zi yetmoq.** - ishonch hosil qilmoq, ishonchi komil bo`lmoq.

M: Haydar ota undan javob ololmasligiga ko`zi yetib, shoshganicha ichkariga kirdi. (A.Qahhor “Asror bobo”);

10. **Ko`zi yorimoq** - yengil bo`lmoq, farzand ko`rmoq, tug`moq;

11. **Ko`zi ilinmoq** - uxlay boshlamoq, mudramoq, mizg`imoq. M: Hoji xola ko`zi ilinib, endi xurрак ota boshlagan edi, To`raxon dang qotib qoldi. (M.Ismoiliiy “Fargona tong otguncha”)

12. **Ko`z oldiga (yoki o`ngiga) keltirmoq** - tasavvur qilmoq, xayolan ko`rmoq; xayol qilmoq. M: O`zi qatnashgan dahshatli janglarni ko`z oldiga keltirdi.

13. **Ko`z ochib ko`rgani** - birinchi er yoki xotin. M: Ikkalasiga bir pardadan ko`ylaklik ol! Birini past, birini baland qilma, bu xotining bo`lganda, ul ham ko`z ochib ko`rganing. (A.Qodiriy “O`tgan kunlar”);

14. **Ko`zi ochildi** - mohiyatiga tushundi; oq-qorani taniydigan bo`ldi. M: Endi bas! Ko`zim ochildi, Gulnor. Lekin bu ko`z qurg`ur juda kech ochildi (Oybek “Qutlug` qon”);

15. **Ko`zi ochiq ketmoq** - dunyodan armon bilan, maqsadiga yetolmasdan o`tmoq;

16. **Ko`zi pishmoq** – o`z ishida ma`lum tajriba orttirmoq;

17. **Ko`z tagiga (yoki ostiga) olmoq** - nazorat qilmoq; ta`qib qilmoq. M: Uni ko`zingiz tagiga oling. (N.Safarov “Uyg`onish”);

18. **Ko`z tashlamoq** - birrov qaramoq; nazar solmoq;

19. **Ko`zi to`rt bo`lmoq** - nihoyatda intizorlik bilan kutmoq.

M: - Shukur, o`g`lim, shukur, keldigizmi? - ... Seni keladi deb oying ikkalamizning bir oydan beri ko`zimiz to`rt;

20. **Ko`zi o`ynamoq** - havasi kelmoq, hasad qilmoq. M: Xushro`yning ko`zi o`ynab, har sekundda har yoqqa alanglar edi. (A.Qodiriy “O`tgan kunlar”);

21. **Ko`z yoshi qilmoq;** - 1) yig`lamoq 2) yig`lagudek bo`lib, nolib shikoyat qilmoq;

22. **Ko`zga dori** - juda qadrlı bo`lib ketgan kamyob narsa haqida qo`llanadigan ibora. M: [Yormat:] tirikchilik qiyin ... Qumaloq ham ko`zga dori. Non topolmay ko`chada gadoylik qilib yurganlar ozmi, uka? (Oybek “Qutlug`qon”);

23. **Ko`zga ilmoq** - pisand qilmoq, nazarga olmoq, hurmat qilmoq. M: Ayo to`ram, aytmaguncha bilmading, Yo bilmayman, bizni ko`zga ilmading (Ergash shoir);

24. **Ko`zga surtmoq** - ortiq darajada qadrlamoq, e`zozlamoq.

25. **Ko`zga ko`ringan** - ma`lum va mashhur, taniqli, dongdor. M: Ko`zga ko`ringan olim;

26. **Ko`zga ishonmaslik** - ko`rayotgan narsasi haqiqatda bor va shunday ekaniga shubha qilmoq, o`ta hayron bo`lmoq. M: U ikki qo`lida uchtdan oltita choynak ko`tarib, hovuz bo`yidagi choyxo`rlar oldiga ketayotgan Siddiqjonni ko`rib, xuddi ko`ziga ishonmaganday, turib qoldi. (A.Qahhor “Qo`shchinor”);

27. **Ko`z tashlamoq** - nazar solmoq, qaramoq, bir qarab qo`ymoq;

28.Ko`ziga cho`p solmoq; - bildirmay yomonlik qilmoq: tahqirlamoq. M: Hazilingni qo`y, bolam, ko`zga cho`p solib bo`ladimi? - dedi muloyim Zebi xola va Sodiqni yetaqlab ketdi;

29.Ko`zda tutmoq - mo`ljal qilmoq, o`ylamoq, nazarda tutmoq;

30.Ko`zini (moshday) ochib qo`ymoq - 1) hushyor qilib qo`ymoq, o`ziga keltirmoq. M: Kechagina bo`lib o`tgan gap Sodiqni ko`zini moshday ochib qo`ydi. (S. Anorboyev “Ko`zlar”); 2) (ko`chma) ta`zirini bermoq, boplamoq. M: - Hamma o`lib-tirilib ishlab yursa-yu, bir tirraqi podani bulg`atsa, hali ko`rasan, buning isnodi butun brigadaga tegadi, ko`zini ochib qo`yish kerak bundaqlarni, - dedi Sibgatulin. (Sh.G`ulomov “Bo`z yer uyg`ondi”);

31.Ko`zining paxtasini chiqarmoq – g`azab yoki hayajondan ko`zini katta ochmoq, ko`zini ola-kula qilmoq. M: Ko`zining paxtasini chiqarib, dam boshmaldog`idan oqayotgan qonga, dam Boboqulga qarab baqirdi. (S. Anorboyev “Oqsoy”);

32.Ishning ko`zini bilmoq - ishning sirini, mohiyatini oson bajarish, ko`proq manfaatli bo`lish yo`lini bilmoq [¹].

Endi esa Ingliz tilida «eye» so`zining ma`noviy munosabatlari va semantik qurshovini ko`rib o`tsak:

1.Put the evil eye on - xurofiy kishilar tushunchasiga ko`ra: bironing suqlanib, hasad bilan qarashi tufayli ziyon yetmoq, shikastlanmoq, betob bo`lib qolmoq;

2.Give someone a black eye - biron kishining ko`zini urib ko`kartirmoq;

3.In the twinkling of an eye – ko`z ochib yumguncha, bir zumda

4. Make eyes at somebody - ko`zini suzmoq;

5. Be all eyes - hushyor bo`lmoq;

6. Set eyes on - payqamoq, sezmoq;

7. Fix one's eyes on - davomli ravishda qarab turmoq, tikilib turmoq;

8. Keep an eye on - xabardor bo`lmoq, qarab turmoq (bolalarga);

¹ O`zbek tilining izohli lug`ati II tomlik 1-2-tom. - M., 1981.

9. **Keep one's eyes open** - hushyor, sergak turmoq.
10. **Take one's eyes off somebody** - ko`zini, nigohini biron kishidan olib qochmoq.
11. **Before somebody's very eye** - biron kishining ko`z o`ngida;
12. **Make somebody open his eye** - hayratdan ko`zini katta-katta ochmoq (hayratlanmoq);
13. **Cry one's eyes** - davomli ravishda, juda ko`p yig`lamoq;
14. **Dry one's eyes** - ko`p yig`lagandan ko`z yoshining tugashi;
15. **In the mind's eye** – ko`z oldiga kelmoq; tasavvurda gavdalanmoq, xayolan ko`rinmoq;
16. **To run the eye over the paper** – ko`z yugurtirmoq, tezgina qarab (ko`rib) chiqmoq;
17. **Up to the eyes in work** - ishi judayam ko`p; boshigacha ishga ko`milgan;
18. **To close eyes to the danger** - xavf-xatarga e`tibor bermaslik, oldini olish uchun harakat qilmaslik;
19. **To open somebody's eyes to the situation** - haqiqatni yashirmasdan, boricha ko`rsatib berish;
20. **Turn a blind eye to** - biron narsani ko`rishni istamaslik.

«Ko`z» leksemasining so`z birikmalarda kelishi:

1. **Ko`zaynak** – ko`zga o`xshash teshik: Asalari inining ko`zaynaklari;
2. **Ko`zboylog`ich** - har xil fokuslar, nayrangbozliklar ko`rsatuvchi; nayrangboz, fokuschi;
3. **Ko`zbuyamachi** – o`z foydasi uchun faktlarni bosib, noto`g`ri ko`rsatuvchi, boshqalarni aldovchi, aldoqchi;
4. **Ko`zgu** - oyna;
5. **Ko`zday** - juda yaqin: Ko`zdek qo`shnilar;

6.**Ko`zikmoq** - xurofiy kishilar tushunchasiga ko`ra ko`z tegishi natijasida biror falokatga yo`liqmoq, zarar ko`rmoq, shikastlanmoq, kasallanmoq va shu kabilar: Bola ko`zikibdi;

7.**Ko`z-ko`z** (qilmoq.) - boshqalarni qiziqtirish, havasini keltirish uchun maqtanib ko`rsatmoq; namoyish qilmoq;

8.**Ko`zlamoq** - 1) biror narsa yoki maqsadni ko`zda tutmoq, mo`ljallamoq va o`shanga erishish uchun harakat qilmoq;

9.**Ko`zmunchoq** - munchoq;

10.**Ko`zoynak** - normal ko`rish yoki ko`zni himoya qilish uchun taqiladigan, ikkita shisha ko`z o`rnatilgan maxsus asbob; oynak.

11.**Ko`zsiz** - ko`zi yo`q, ko`rmaydigan, ko`r.

12.**Ko`z - quloq** – ko`rib, eshitib, kuzatib turmoq; poylab turmoq [1].

2. Ingliz va o`zbek tillarida «bosh» so`zining ko`p ma`noliligi

Quyida xuddi «ko`z» singari «bosh» leksemasining nutqdagi ma`nolarini erkin hamda bog`liq qurshovlarda ko`rib o`tamiz.

Dastlabki ma`no (organ) da «bosh» leksemasi inson (yoki hayvon) tana a`zolarining birini – yuz va miyani o`z ichiga olgan a`zoni ifodalab kelgan. Uni biz «tana a`zosi» hamda «miya va yuzdan iborat organ» sifatida tasavvur qilamiz. «Bosh» leksemasi aynan shu dastlabki ma`nolari bilan boshqa so`zlar orqali birikib erkin qurshovda kelishini bilamiz.

Erkin birika oladigan so`zlar judayam ko`pligi sababli, ularning ba`zilari bilan erkin qurshov hosil qilsak:

Masalan «odamning boshi» dagi odam so`zini boshqa so`z bilan almashtirishimiz mumkin bo`ladi (otning boshi) va hokazo. «Bosh» xuddi «ko`z» leksemasi singari erkin qurshovlarda «jonli (tirik) mavjudotning bo`yindan yuqori qismi» kabi mazmun munosabati bilan ishtirok etadi.

¹ O`zbek tilining izohli lug`ati II tomlik 1-2-tom. - M., 1981

«Bosh» jonsiz narsalarning nomi bilan birikib, o`zga ma`noni ifodalab, tobe bo`lak vazifasida keladi (organ emas). Masalan: «bir bosh piyoz», «a head of cabbage». Bu holatda metafora ro`y beradi, ya`ni bir predmetning nomi shakl o`xshashligi tufayli ikkinchi bir predmetga ko`chadi. Biroq boshga o`xshash har bir narsa ham «bosh» sememasi orqali ifodalanmaydi. Bunday holatda biz tilda mavjud, o`zgarmas qonuniyatlarga bo`ysunishga majbur bo`lamiz. Ya`ni bog`liq qurshovni o`zgartira olmaymiz.

«Bosh» so`zi iboralarda o`z ifodasini topib, boshqa ma`nolarni ifodalab kelishi mumkin, masalan: o`zbek tilidagi «boshi ochiq» iborasi «unashtirilmagan», «o`ylanmagan» yoki «ajrashgan kishi» ma`nolarini, ingliz tilidagi «go head to head with somebody» iborasi «biror kishi bilan to`g`ridan-to`g`ri musobaqalashmoq», «qattiq chora ko`rmoq, koyimoq» kabi ko`chma ma`nolarni ifodalab keladi.

Demak, «bosh» leksemasi turli tillarda erkin va bog`liq qurshovlarda ko`plab ma`nolarni ifodalashi mumkin ekan.

Endi esa «bosh» so`zining leksik ma`nolarini til tizimi har xil bo`lgan tillarda taqqoslab ko`rsak:

| № | Ma`no | Ingliz tili | O`zbek tili | Rus tili |
|----------|---|---------------------------|---|-----------------------|
| 1. | Organ | She shook her head sadly. | U boshi bilan rizolik bildirdi | Ранен в голову |
| 2. | Odam, kishi | 5 shilling per head | Bir boshga bir o`lim. Maqol | На каждого (человека) |
| 3. | Chorva hisobida har bir adad jonivor | Fifty head of cattle | 50 bosh qora mol | 50 голов скота |
| 4. | Boshliq, rahbar | The head of the school | Dehqon bo`lsang qoshida bo`l, sipoh bo`lsang - boshida bo`l. Maqol. | Всему делу голова. |

| | | | | |
|-----|--|---|--|---|
| 5. | Boshga o`xshash o`simlikning guli yoki mevasi | I bought a head of lettuce and three heads of cauliflower. | Bir bosh uzum. Bir bosh karam. | Гроздь, кисть винограда. Качан капусты |
| 6. | Qobiliyat | He has a good head for math. | Iqtidor, qobiliyat | Человек с головой |
| 7. | O`rin, krovatning yostiq qo`yiladigan qismi | The cat was lying on the head of my bed | U krovatning boshiga kelib o`tirdi | Верхняя часть кровати |
| 8. | Daryo yoki oqar suvning boshi yoki chashmasi | The explorers tracked the bear back toward the head of the stream | Daryo boshlangan joy, daryo boshi deyiladi | Исток реки, ручья (головная часть) |
| 9. | Eng baland lavozimdagi yoki unvondagi kishi | The head librarian demanding that we increase her salary | Bosh vrach. Bosh agronom. | Главный врач. Главный агроном |
| 10. | Aql-hush, miya | Her head was Full of terrible thought | Bosh bilan ish qilmoq | В голову ничего не идёт. |

Ingliz tilida "head" leksemasi orqali ifodalaniladigan tushunchalarning ingliz, o`zbek va rus tillarida berilishi:

| | | | | |
|----|--|--|----------------------------------|---------------|
| 1. | Oq yoki sariq rangli yiring yig`ilgan, teri ustidagi yara | Don't scrape the head off your pimples because the'll get infected. | Husnbuzar, yara, chipqon | Гнойник |
| 2. | Pivoni idishga qo`yganda paydo bo`ladigan kichkina | Did you see the head on that glass of beer? | Pivo ichimligining ko`pikchalari | Пивные пузыри |

| | | | | |
|----|--|--|------------------------------|-------------------------|
| | ko`piklar qatlami | | | |
| 3. | Tanganing kishi boshi tasvirlangan tomoni | I'll flip a coin. If it is heads you get to go first | Tanganing yuz qismi (tomoni) | Орёл |
| 4. | Magnitofonning tovushlarni yozib oladigan kichik, metalldan bo`lgan qismi | Clean the head periodically to be sure that you will get high quality sound reproduction | Tovush yozib oluvchi qism | Головка |
| 5. | Kema yoki suv osti kemasidagi hojatkona | The head in our area of the ship was very small and smelled bad. | Hojatkona | Туалет |
| 6. | Qandaydir yo`nalish tomon harakatlanmoq yoki sayohat qilmoq | Let's head for the mountains | Bormoq, sayohat qilmoq | Двигаться, идти |
| 7. | To`pni bosh bilan urmoq (ayniqsa futbolda) | He headed the ball past the goalie and into the net. | To`pni bosh bilan oshirmoq | Ударять головой по мячу |

O`zbek tilida "bosh" leksemasi orqali ifodalaniladigan tushunchalarning ingliz va rus tillarida berilishi:

| | | | | |
|----|-----------------------------------|---|-----------------------------|----------------------------------|
| 1. | Taqdir, qismat | Bu gap hammamizning boshimizda bor | Destiny | Судьба |
| 2. | Biron narsaning tepa yuqori qismi | Daraxtning boshi. Tog`ning boshi | The top of a tree, mountain | Верхушка, (макушка) дерева, горы |
| 3. | Bozor joylashgan joy | Bozor boshi | A market area | Базарная площадь |
| 4. | Abzats | Xat boshi | Paragraph, intended line | Абзац, красная строка |
| 5. | Boshlanish joyidan | Bir boshdan | From the beginning | С одного конца, по порядку |

| | | | | |
|-----|--------------------------------|-------------------------|--------------------------------|-----------------------------------|
| 6. | Ko`chaning boshlanishi (oxiri) | Ko`chaning boshi | Beginning (end) of the street) | Начало (конец) улицы |
| 7. | Besh karra | Besh bosh | Five times | Пятикратно, в пятикратном размере |
| 8. | Birinchi barmoq | Bosh barmoq | Thumb, big toe | Большой палец |
| 9. | Asosiy masala | Bosh masala | Main question | Главный вопрос |
| 10. | Katta harf | Bosh harf | Capital letter | Заглавная или прописная буква |
| 11. | Oyning birinchi kunlari | Oy boshi | Beginning of the month | Начало месяца |

Rus tilida "голова" leksemasi orqali ifodalaniladigan tushunchalarning ingliz va o`zbek tillarida berilishi:

| | | | | |
|----|---|-----------------|---------------------|------------------------------|
| 1. | Turli fikr, qarashlarga ega qobiliyatli | Он умная голова | A clever, smart man | Aqlli, qobiliyatli kishi |
| 2. | Qand | Голова сахару | Loaf sugar | Bir bo`lak qand (kalla qand) |

Yuqorida «bosh» polisemantik so`zining leksik ma`nolarini taqqoslashda hozirda mavjud bo`lgan tillarning izohli lug`atlaridan foydalandik. Yuqoridagi ma`nolardan tashqari tilda «bosh» so`zining yana boshqa ma`nolari ham mavjud bo`lishi mumkin. Adabiyotlarning kamligi sababli biz faqatgina mavjud lug`atlar bilan chegaralanishga majbur bo`lib, ularga tayanib ish olib bordik.

Taqqoslash jarayonida ushbu narsaga yana bir bor amin bo`ldikki, tildagi ba`zi bir tushunchalar boshqa tilda aynan bir leksema orqali ifodalanishi yoki aksincha, ayni bir tushuncha ikkinchi bir tilda boshqa so`zlar orqali berilishi mumkin.

Demak, tillarda leksemalarning ifodalanishida o`xshashlik va farqlar mavjud ekan.

Quyida «bosh» leksemasining til tizimi har xil boʻlgan uch tildagi umumiy va xususiy, nutqiy maʼnolari, oʻz va koʻchma maʼnolarini, turgʻun birikmalardagi semantik qirralari singari lisoniy hodisalarni qanday tarzda ifodalanishini batafsil koʻrib chiqsak:

«Head» soʻzining lugʻaviy maʼnolari

Noun

1. Kishi yoki hayvonning boʻyniga bogʻlangan, yuz va miyani oʻz ichiga olgan qismi: He stuck his head out the window to see who was calling.

2. Biror bir narsani boshqaradigan yoki ustidan hokimlik qiladigan odam: The various heads of the major oil companies will meet next week in Mexico city.

3. Biror bir kishining miyasi: Try to calculate the sum of these numbers in your head.

4. Matematika, tijorat yoki investitsiya kabi biror bir narsani yaxshi qilish qobiliyati: The youngest son really has a head for the business and will probably be the president of the company after his father retires.

5. Kishi, odam: The wedding party is going to cost us about \$15 per head.

6. Biror bir buyumning narsani urishga ishlatiladigan qismi yoki urilishi kerak boʻlgan joy yoki qolganiga qaraganda kattaroq boʻlgan qismi: The head of the hammer was so loose that it fell off when I hicked up the handle; I caught my toe on the head of a nail that was sticking up out of the floor.

7. Biror bir narsaning boshi, oldi yoki usti: You will see the date at the head of the page; She looked up and saw a man standing quitly at the head of stairs.

8. Oq yoki sariq rangli yiring yigʻilgan, teri ustidagi yara: Don't scrape the head off your pimples because they'll get infected.

9. Daryo yoki oqar suvning boshi yoki chashmasi: The explorers tracked the bear back toward the head of the stream.

10. Oʻsimlikning barglari, guli yoki mevasi oʻsadigan ustki (boshga oʻxshash) qismi: I bought a head of cabbage.

11. Pivoni idishga qo`yganda paydo bo`ladigan kichkina ko`piklar qatlami:
Did you see the head on that glass of beer? It was really sick.

12. Taxminan kishi yoki hayvon boshining o`lchami bilan teng bo`lgan,
uzunlik o`lchamining birligi: The horse won the race by a head; He is a taller than
his little sister.

13. Heads - tanganing kishi boshi tasvirlangan tomonini nomlash yo`li.

14. Magnitofonning tovushlarni yozib oladigan kichik, metalldan bo`lgan
qismi: Clean the head periodically to be sure that you will get high quality sound
reproduction.

15. Biror bir idish bilan o`ralgan par yoki suvning bosimi: Boiling water will
build up quite a head of steam if you keep it tightly covered.

16. Odatda fermada undan oziq-ovqat mahsuloti qilish uchun boqiladigan uy
hayvoni: I have about 50 head of cattle that I want to sell at the market today.

17. Kema yoki suv osti kemasidagi hojatxona: the head in our area of the
ship was very small and smelled bad.

Adj.

18. Eng baland lavozimdagi yoki unvondagi kishi: I'd like you to meet our
head salesperson.

Verb.

19. Qandaydir yo`nalishda sayyohat qilmoq yoki harakatlanmoq: Our ship
was heading straight into the storm.

20. Biror bir kishi yoki narsani qandaydir yo`nalishda harakatlantirmoq:
Could you head the boat toward those islands?

21. Aniq natija tomon harakatlanmoq: Your company is heading for big
financial problems.

22. To`pni bosh bilan urmoq, ayniqsa futbolda: Ne headed the ball past
goalie and into the net.

23. Biror bir narsaning boshida bo`lmoq, odatda ro`yxatda yoki qog`ozda: Football heads the list of the most popular sports among boys between the ages of 12 and 20.

24. Bir guruh odamlarning eng boshida yurmoq yoki sayohat qilmoq: The procession was headed by various government officials.

25. Yetakchi, birinchi bo`lmoq: I was at the head of the class.

26. Kemaning burun qismi: Head to sea - okinga harshi.

27. Yotoqning yostiq qo`yadigan qismi.

28. Qopqoq.

29. Mixning teppa qismi.

30. Kasallikning avj olgan payti.

31. Sof ruda, konsentrat (sifatli).

32. Foyda [¹].

«Head» so`zining iboralarda ifodalanadigan ma`nolari:

1. **Have your head in the clouds or do smth with your head in the clouds**

- norasmiy; boshqa ishlar haqidagi o`ylar bilan juda band bo`lganligi tufayli, boshqa kishilar muhim deb hisoblagan narsalardan bexabar bo`lmoq yoki ularga e`tibor bermaslik:

He has his head in the clouds. He doesn't see what is going on here.

2. **Go over somebody's head** - odatda murojaat qiladigan kishingiz yonidan

o`tmasdan, undan mansabi kattaroq bo`lgan kishiga murojaat qilmoq:

My manager was upset because I tried to go over his head. I went straight to the president of the company.

3. **Put somebody's heads together** - norasmiy; biror bir kishi bilan

qandaydir muammoni yoki qiyin vaziyatni birgalikda muhokama qilish:

Separately their ideas are okay, but their ideas would be better if they would put their heads together.

¹ An English - O`zbek Dictionary of selected words with explanations in English and Uzbek. - T., 2004.

4. Over somebody's head - biror bir kishining tushuna olish imkon darajasidan tashqarida:

I was listening to the scientist, but everything he said went over my head.

5. Have a head for smth - biror bir narsa yoki ishni yaxshi bilish qobiliyati:
My brother has a head for mathematics.

6. Get something into your head - a) biror bir narsani tushunmoq, odatda bir qancha kuch ketkazgandan so'ng; b) biror bir kishiga biror bir narsani tushuntirmoq:

a) The owner of the company eventually got it into his head that the workers needed a longer lunch break;

b) She finally got it into his head that she would never marry him.

7. Use your head - miyani ishlatmoq:

Now that's what I call using your head. That is a great idea!

8. Have a good head on your shoulders - juda aqlli bo'lmoq:

That young lady has a good head on her shoulders. I know she 'll do the right thing.

9. Have your head screwed on straight - norasmiy; to'g'ri ish tutish uchun yaxshilab, aqlni ishlatib o'ylamoq:

You need to get your head screwed on straight young man. You need to stop so much watching TV and concentrate more on your studies.

10. A clear head or a cool head - qiyin vaziyatda o'zini bosib, aqlni ishlatib o'ylamoq:

A cool head and a lot of practice will help in an emergency situation.

11. Keep your head - qiyin vaziyatda tinchlikni saqlab, aql bilan o'ylamoq:
The teacher kept her head and helped the children out of the burning building.

12. Loose your head - qiyin vaziyatda tinchlikni saqlab, aqlni ishlatib o'ylab olmaganingizdagi holatda asabiylashmoq, xavotirlanmoq, xafa bo'lmoq.

13. Need your head to have examined - norasmiy; boshqa kishilar aqldan ozgan deb o'ylaydigan darajada o'zini tutmoq yoki o'ylamoq:

Anyone who still thinks that the Earth is flat needs to have his head examined.

14. Have a big head - o`zini keragidan ortiq yaxshi yoki ahamiyatli deb hisoblamoq;

I don't understand why he has such a big head.

15. Go to somebody's head - a) biror bir kishi o`zini keragidan ortiq darajada muhim deb hisoblashga olib kelmoq;

His company's success on the stock market has really gone to his head;

b) biror bir kishining qisqa vaqt ichida ozgina mast bo`lishiga olib kelmoq:

I should have eaten smth because that wine has gone straight to my head.

16. Come to a head - muammoning kuchayishi yoki jiddiy tus olishi, u bilan biror bir narsa qilishingiz kerakligi:

Our disagreement over economic policy came to a head when he proposed a new tax.

17. Bring smth to a head - muammoning kuchayishi yoki jiddiy tus olishi, u bilan biror bir narsa qilishingiz kerakligi:

Our disagreement was brought to a head when she started telling lies about me to my friends.

18. Keep your head above water - pulingiz kam qolganiga qaramasdan yashashda davom etmoq:

With all these bills and debts, it's amazing that he's keeping his head above water.

19. On your head or on your own head - norasmiy; muvaffaqiyatsizlik sizning aybingiz bilan bo`lganini nomlash yo`li:

If this doesn't work, it's going to be on your head.

20. Laugh your head off or scream your head off - norasmiy; baland ovoz bilan kulmoq yoki baqirmoq:

I laughed to head off through that whole movie; Don't scream your head off! It's only a spider.

21. Bang your head against a wall - biror bir qilib bo`lmaydigandek yoki ijobiy natija bermaydigandek ko`ringan narsani qilishga harakat qilishni davom ettirish natijasida paydo bo`lgan xafagarchilik his tuyg`usi:

Stop trying to change him. You're just banging your heads against a wall.

22. Get it into your head to do smth – to`satdan biror bir narsani qilishga qaror qilmoq:

I don't know why, but my father has got it into his head to build a new addition to our house.

23. Go head to head with smn - biror bir kishi bilan to`g`ridan-to`g`ri musobaqalashmoq:

The candidates for President will go head to head in a debate on Friday.

24. Over your head in debt - qaytara olmaydigan darajada ko`p pul qarz bo`lmoq (boshgacha qarzga botmoq):

I'm way over to head in debt and I don't know what to do about it.

25. In over your head - qandaydir vaziyatda qilayotgan harakatlaringizni boshqara olmasligingiz yoki tushunmasligingiz:

You might take a few chances with gambling, but don't get in over your head.

26. Head and shoulders above the rest - biror bir narsa yoki kishi boshqa narsa yoki kishidan yaxshiligini kuchaytirib aytish yo`li.

27. Head over heels or head over heels in love - norasmiy; biror bir kishi boshqa bir kishini juda yaxshi ko`rishini aytish yo`li:

The young boy fell head over heels for the new girl at school.

28. Heads will role - norasmiy; odamlar biror bir qilgan ishlariga yoki yomon vaziyat uchun jazo olishlarini kuchaytirib aytish:

I have a feeling that heads will role as a result of the latest decline in sales.

29. Heads up - birovning diqqatini o`ziga qaratish yoki biror narsaning tushayotganligidan ogohlantirish:

Heads up, everybody! Here comes the ball!

30. A heads up or the heads up - ogohlantirmoq:

Please give me a heads up before you change anything.

31. Off the top of your head - biror bir narsa to`g`riligini tekshirmasdan turib, darhol qilish yoki aytish:

I am amazed that he can stand in front of the class and do these math problems off the top of his head.

32. Turn somebody's head - biror bir kishining ko`rinishi uni yoqtirib qolishingizga olib kelishi:

The tall man in the dark suit was the only man in the room who turned my head.

33. Heads of the class - guruhning yoki sinfning eng zo`r (yetakchi) a`zosi:

My friend is head of the class.

34. Head off - a) biror bir kishi yoki narsa yo`nalishini davom ettirishni oldini olmoq:

The soldiers were able to head the rebels off before they got to the border;

b) biror bir narsa sodir bo`lishini oldini olmoq:

The government is trying to head off an economic diaster;

c) boshqa joyga ketmoq:

When will you head off for England?

35. Head up - a) bir guruh odamlarni yoki loyihani boshqarmoq:

I have been selected to head up the recruiting this year,

b) bir guruh odamlarning boshida yurmoq yoki sayohat qilmoq:

My father will head up the procession into the theater^[1].

«Bosh» so`zining lug`aviy ma`nolari

1. Tananing bo`yindan yuqorigi (odamda) yoki oldingi (hayvonlarda) qismi; Yumaloq bosh. Bosh kosasi (anat.)

¹ An English - O`zbek Dictionary of selected words with explanations in English and Uzbek. - T., 2004.

2. Taqdir, qismat, ko`rgilik: Gulsumbibining yoniga Xonimbibi qo`shilishdi:
- Ko`p o`ylashmang, o`rtoqlar! Baribir, bu gap hammamizning boshimizda bor.
(A.Qodiriy “O`tgan kunlar”)

3. Aql-hush, miya: Tog`ning ko`rki tosh bilan, odamning ko`rki bosh bilan.
Maqol.

4. Boshliq, rahbar: Direktor - komandir, bosh, muallim - rahbar, yo`ldosh,
chiqma ular so`zidan, bor ko`rsatgan izidan. (Q.Muhammadiy)

5. Boshchilik, rahbarlik qiluvchi, eng katta yoki yuqori: Bosh vrach; Bosh
agronom.

6. Eng oldingi, birinchi: Bosh kelin. Najmiddinboyning bosh xotinidan
Abdillaboy, kichik xotinidan Nurining eri Fazliddin tug`ilgan. (Oybek “Qutlug`
qon”)

7. Eng muhim, asosiy: Bosh masala. Bosh sabab. Paxta - bosh vazifa.

8. Odam, kishi: Bir boshga bir o`lim. Maqol. Bu bosh dunyoga kelib
nimalarni ko`rmadi-a!

9. Chorva hisobida har bir adad jonivor. Kolxoz chorvasiga bir yuz o`n
to`qqiz bosh mol qo`shildi (A.Qahhor “Qo`shchinor”).

10. Tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho`qqisi: Shamol bo`lmasa,
daraxtning boshi qimirlamaydi. (Maqol)

11. O`rin, krovat va shu kabilarning yostiq qo`yiladigan yuqori tomoni:
Kvadrat krovatning boshi uyoqqa qolib, oyog`iga chalqancha ag`anagan,
nimadandir ijirg`anib, labi pichirlardi. (H. Nazir, So`nmas chaqmoqlar).

12. O`rinda, krovatda yotgan kishining beldan yuqori qismi atrofidagi joy:
Hoji Kumushning boshiga kelib o`tirdi. (A.Qodiriy “O`tgan kunlar”).

13. Ba`zi otlar bilan birikib, shu ot orqali ifodalangan narsaning o`zini yoki
u o`rmashgan joyni bildiradi: Bozor boshi, o`choq boshi, to`g`on boshi, tegirmon
boshi.

14. Cho`ziq, davomli, bo`yli narsalarning boshlanish joyi yoki oxirgi, etagi;
shunday narsalarning ikki uchidan, chekkasidan, tomonidan biri: Shovqin-suron

orasida qo`rg`on begi ot ustida ko`rganing u boshidan bu boshiga chopardi.
(A.Qodiriy “O`tgan kunlar”).

15. Voqea, hodisa, asar va shu kabilarning boshlanish joyi, payti, avvali, muqaddimasi: Hikoyaning boshi. Yo`lning boshi. Ishning boshi. To`yning boshi - boshlanguncha. (Maqol)

16. Ba`zi o`simliklarning kalla shaklidagi hosili, mevasi: Bir bosh uzum. Bir bosh karam.

17. Karra, hisob. Besh bosh qilib olmoq. O`n bosh qilib to`lamoq.

«Bosh» leksemasining iboralarda qo`llanilishi:

1. **Boshi bilan:** a) butun vujudi bilan, astoydil:

Olimjon ko`pdan kutilgan ishga boshi bilan ko`milib ketgan edi.

b) joni, hayoti bilan:

Men bunga boshim bilan javob beraman.

2. **Boshi bog`liq** - unashtirib qo`yilgan.

3. **Xotin boshi bilan** - xotin kishi bo`lgan holda, ayol bo`laturib:

Endi xotin boshi bilan Marg`ilonga murojaat qilsinmi. (A.Qodiriy “O`tgan kunlar”)

4. **Boshi ochiq.** - a) paranji tashlagan, paranji yopinmaydigan; ochiq;

b) unashtirilmagan, o`ylanmagan yoki ajralishgan:

Endi u boshi ochiq qiz bola emas. Oilali. (S.Anorboyev “Mehr”)

5. **Bosh og`rig`i** - dardisar narsa, ortiqcha tashvish, dahmaza.

6. **Bosh ustiga** - bajonudil, jonu dil bilan:

Uchrashganingiz to`g`risida menga ma`lumot yozsangiz, tag`in minnatdor qilardingiz. - Bosh ustiga. (A.Qodiriy “O`tgan kunlar”)

7. **Boshi qorong`i** - homilador ayollarda homiladorlikning dastlabki oylarida bo`ladigan hodisa (masalan biror narsani tusash).

Uning anorga boshi qorong`i.

8. **Boshi ko`kka (yoki osmonga) yetdi** – g`oyat xursand bo`ldi, juda ko`ngli ko`tarildi:

Karimqul akadan eshitib boshim osmonga yetdi. (Oybek “Oltin vodiyan shabadalar”)

9. **Bosh ko`tarmoq.** - a) oyoqqa turmoq, tuzalmoq:

Bemor kasaldan bosh ko`tardi.

b) mashg`ul bo`lgan biror ishdan to`xtamoq, uzilmoq:

Uni bosh ko`tartirmay ishlayotgan narsa, balki shu mehnat xumoridir!
(M.Ismoiliy “Fargona tong otguncha”)

c) unib chiqmoq, ko`karmoq:

Ko`klam kelishi bilan begona o`t bosh ko`tarmasin deb ... yer molalandi, chizellandi.

d) ufqdan ko`tarilmoq, chiqmoq (asosan Oy, Quyosh haqida).

Uch kun g`oyib bo`lib ketgan quyosh bosh ko`tardi. (N.Safarov, Xadicha Ahrorova).

e) qarshi harakat qilmoq, isyon qilmoq, qo`zg`almoq:

Toshkent hokimi bo`lgan Azizbek Qo`qonga qarshi bosh ko`targan.
(A.Qodiriy “O`tgan kunlar”)

10. **Bosh ko`tarib yurmoq** - yuzi yorug`, pok, halol bo`lganligi uchun kishilar o`rtasida bemalol, yerga qaramay yurmoq.

11. **Bosh olib ketmoq** - hamma narsadan voz kechib, butunlay boshqa yerga, yurtga ketib qolmoq, jo`namoq.

12. **Boshi oqqan tomonga ketmoq** - duch kelgan tomonga, to`g`ri kelgan yoqqa qarab ketmoq.

13. **Bosh suqmoq (yoki tikmoq)** - 1) oyoq qo`ymoq, kirmoq:

Kampir enam qiz qidira-qidira tinkasi quribdi, qaysi eshikka bosh tiqsa, so`rasharmish: savdogarmi, bog`i bormi, uy-joyi bormi? (Oybek “Qutlug` qon”);

2) o`rnashmoq, joylashmoq:

U aytgan tollar qulabdi, bosh tiqmoqchi bo`lgan maktab-maorif sohasiga tamoman yangi odamlar, olov nafasli yoshlar kelibdi;

3) aralashmoq, chatishmoq:

Sobirjon birovlarning gapiga kirib, shunaqangi ishlarga bosh suqmasa edi.

14. **Bosh tortmoq** - 1) boshqolamoq, g`unchalamoq:

Sizni og`zi qon bo`ri dedim, chunki, .. siz yangi ochilgan gullarni, endi bosh tortgan lolalarni vaqtsiz so`ldirasiz, ochilib bitmay o`ldirasiz! (A.Qodiriy “O`tgan kunlar”)

2) biror ish, va shu kabilarni bajarishdan yuz o`girmoq, qochmoq:

Itoatdan bosh tortgan Toshkentga garchi Musulmonqulning tepa sochi tik turib, adab berish niyatida safar jabdug`ini tuzdi. (A.Qodiriy “O`tgan kunlar”)

15. **Boshing toshdan bo`lsin** - umring uzoq bo`lsin, o`lma.

16. **Bosh urmoq** - panoh tortib yoki najot izlab kelmoq; sajda qilmoq.

17. **Boshi chiqmaydi** - sira qutulmaydi, bo`shamaydi.

18. **Bir yoqadan bosh chiqarib** - bir jon, bir tan bo`lib, hamjihatlik, yakdillik bilan.

19. **Bosh egmoq** – bo`ysunmoq, itoat qilmoq, tiz cho`kmoq, sajda qilmoq.

20. **Bosh qashimoq** - noilojlikdan nima qilishini bilmay o`ylab qolmoq, bosh qotirmoq.

21. **Boshi qotdi** - nima qilarini bilmay qoldi, gangib qoldi.

22. **Mening senga boshim qorong`i edimi** - senga ko`zim uchib turganmidi (nomatlub kishi kelib qolganda aytiladi).

23. **Oyog`iga bosh qo`ymoq** - 1) ayn.bosh urmoq 2) bosh egib hurmat, ehtirom bildirmoq.

24. **Bosh qo`shmoq**- aralashmoq, qotishmoq.

25. **O`z boshiga** - har kim o`z holiga, o`zicha, mustaqil.

26. **Boshiga yetmoq** - 1) halokatga yetkizmoq, nobud qilmoq, o`ldirmoq.

27. **Boshiga ko`tarmoq** - 1) juda ham izzat hurmat qilmoq, hurmatini bajo keltirmoq 2) hamma yoqni buzgudek shovqin solmoq, shovqin ko`tarmoq.

28. Boshiga uradimi? - unga nima keragi bor.

29. Boshiga chiqmoq (yoki minmoq, o'tirmoq) - birovga hukmron yoki xo'jayin bo'lib olmoq.

30. Boshida yong'oq (yoki tosh) chaqmoq - doimiy ravishda xo'rlamoq, jabrlamoq.

31. Boshini biriktirmoq (yoki ikki qilmoq, qo'shmoq) - uylantirib qo'ymoq.

32. Boshini bog'lamoq - unashtirib yoki o'ylantirib qo'ymoq

33. Boshini bukmoq. - 1) uyaltirib yerga qaratib qo'ymoq; 2) bo'sundirmoq, tiz cho'ktirmoq, tobe etmoq.

34. Boshini silamoq. - 1) erkalamoq, yupatmoq; 2) o'z panohiga olib ardoqdamoq, boqmoq, tarbiya qilmoq.

35. Boshini tikmoq - biror ish uchun o'zini qurbon etishga tayyorlik bildirmoq, jonini fido qilmoq.

36. Biror ishning boshini ushlamoq (yoki tutmoq) - biror ishni, hunarni puxta egallab, shu ishda muqim qolmoq.

37. Boshni qotirmoq – bo'lar - bo'lmas ish, gap va shu kabilar bilan jonga tegmoq, zeriktirmoq.

«Bosh» leksemasining so'z birikmalarda kelishi va uning

ma'nolari:

1. Bosh bosh dok - hech kimga va hech qanday qonun-qoidaga, tartib-intizomga buysunmaydigan; o'zboshimcha, bebosh.

2. Boshvok (asli bosh + bog') - chorva mollarining boshiga bog'lanadigan arqon; nuxta.

3. Boshlab - 1) boshlamoq. 2) eng avval, hammadan oldin, dastlab: Og'riqning birinchi kuni Kumush hech kimga sezdirmay yurdi. Ammo, ikkinchi kun buni boshlab Otabek, undan keyin O'zbek oyim sezdi. (A.Qodiriy "O'tgan kunlar") 3) beri, buyon: Yangi yildan boshlab.

4. Boshlama - biror ishga qo'yilgan birinchi qadam; ishning boshi, boshlanishi, ibtidosi: To'y keyinroq bo'ladi, bu faqat boshlamasi.

5. Boshlangich - 1) dastlabki, boshlanishdagi: Snaryadning boshlang'ich tezligi 2) quyi, birinchi bosqich: Boshlang'ich maktab 3) eng oddiy, elementar: Boshlang'ch fizika.

6. Boshli - 1) boshi, kallasi bor: Etti boshli ilon 2) ko'chma m. Aqlli, aql-hushli: Boshli yig'it.

7. Boshliq. - 1) idora, muassasa, tashkilot va shu kabilarga boshchilik qiluvchi lavozimli yoki saylab qo'yilgan kishi: Idora boshlig'i. 2) umuman boshchilik, rahbarlik qiluvchi; rahamo: Oila boshlig'i.

8. Boshma-bosh - 1) boshni boshga qilib, boshni boshga qaratib: Boshma-bosh yotmoq 2) birni-birga (ustiga pul yoki boshqa narsa bermasdan, olmasdan): Boshma-bosh almashtirmoq.

9. Boshmaldoq – qo'l yoki oyoq panjasidagi birinchi yo'g'on barmoq.

10. Boshmoq - kigiz etik, piyima; umuman oyoq, kiyimi.

11. Bosh-oyoq, (sarpo) - bir kishilik bir sidra kiyim-bosh, bir komplekt kiyim va poyafzal: - Sizga bosh-oyoq kiyim! - So'zingdan qaytma, Oftob! (A.Qodiriy "O'tgan kunlar")

12. Boshhoq - 1) Bug'doy, arpa singari o'simliklarning poyasi uchidan don hosil bo'ladigan cho'zinchoq to'p guli, boshi 2) kamon o'qining boshi, uch qismi.

13. Boshpana - 1) turar joy, uy 2) jon saqlash, yashirinish yoki vaqtincha istiqomat qilish uchun yaroqli joy; panoh, maskan.

14. Boshsiz - 1) boshi, kallasi yo'q 2) ko'chma. Aqlli, miyasi yo'q, aqlsiz, axmoq;

15. Boshchi - boshchilik qiluvchi, boshliq, rahbar.

16. Boshqarma - davlat organlari sistemasida biror yirik ish yoki xo'jalik sohasini boshqaradigan va unga rahbarlik qiladigan yuqori idora.

17. Boshqaruvchi - boshqarma va umuman korxonada, muassasa, tashkilot va shu kabilar boshlig'i, rahbari.

18. Boshqirdlar - asosan Boshqirdistonda yashovchi turkiy xalqlardan biri, Boshqirdistonning tub aholisi.

19. Bosh-qosh - boshliq, rahbar, boshqaruvchi.

20. Boshqarmoq - 1) korxonada, muassasada, tashkilot va shu kabi ishni idora qilmoq, yo'lga solib turmoq; 2) tegishli moslama va usullardan foydalanib harakatga keltirmoq, ishga solmoq, yurgizmoq, haydamoq: To'pni boshqarmoq. Kemani boshqarmoq. 3) gram. Sintaktik aloqa qonuniyatlariga muvofiq ma'lum kelishik formasini talab qilmoq: O'timli fe'llar tushum kelishigini boshqaradi [¹].

Biz ingliz va o'zbek tillaridagi lug'atlarni ko'rib chiqqanimizda «bosh» so'zining leksik, frazeologik va so'z birikmalardagi ko'plab ma'nolari mavjudligini aniqladik.

Unga ko'ra: «head» so'zining ingliz tilida 101, «bosh» so'zining o'zbek tilida 75 dan ortiq ma'nolari borligiga amin bo'ldik. Biz mavjud lug'atlarda keltirilgan ma'nolar bilan chegaralanidik. Ammo til rivojlanar ekan, polisemik so'zlar ham, ularning ma'nolari ham kengayaveradi. Bu leksemaning tillarda yana boshqa ma'nolari ham mavjud bo'lishi yoki yana vujudga kelishi mumkin.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati II tomlik 1-2-tom. - M., 1981

II bob bo'yicha xulosa

Bir predmet shakli boshqa birorta predmetga aynan o'xshashligi natijasida oldin vujudga kelgan predmet nomi keyingisiga o'tib nomdosh so'zlar vujudga keladi.

Biz II bobda «ko'z» va «bosh» so'zlarini 2 tilda, ya'ni ingliz va o'zbek tillarida o'rganar ekanmiz, ularning til tizimi har xil bo'lgan tillarda o'xshashlik va farqli tomonlarini aniqladik. Bu so'zlar o'z leksik ma'nolari tizimida o'ziga xos o'xshashlik va farqlarga ega ekan.

Biz ingliz, o'zbek va rus tillaridagi lug'atlarni ko'rib chiqqanimizda «ko'z» so'zining leksik, frazeologik va so'z birikmalardagi ko'plab ma'nolari mavjudligini aniqladik.

II bob tahlillariga ko'ra: «eye» so'zining ingliz tilida 75 dan ortiq, «ko'z» so'zining o'zbek tilida 53 dan ortiq, «глаз» so'zining rus tilida 40 dan ortiq ma'nolari borligini aniqladik.

Yuqoridagi fikrimizdan ayon bo'ladiki, «ko'z» leksemasi uch tilda ham bir xil ma'noga ega emas. Lekin shunga qaramay juda ko'p o'xshashliklarga ham egadir.

Shuningdek, dastlabki ma'noda «bosh» leksemasini biz «tana a'zosi» hamda «miya va yuzdan iborat organ» sifatida tasavvur qilamiz. Ba'zan esa «bosh» jonsiz narsalarning nomi bilan birikib, o'zga ma'nolarni ifodalab, tobe bo'lak vazifasida keladi.

Demak, «bosh» leksemasi til tizimi har xil bo'lgan tillarda erkin va bog'liq qurshovlarda ko'plab ma'nolarni ifodalashi mumkin ekan.

III BOB

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «OG'IZ», «QULOQ», «BURUN» VA «TIL» SO'ZLARINING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

1. Ingliz va o'zbek tillarida «og'iz», «quloq», «burun» va «til» so'zlarining o'z va ko'chma ma'nolari

So'zlarning ko'chma ma'nolarda kelish holatlari tilda ko'p kuzatiladi. Ya'ni, bir predmetning nomi boshqa bir predmetga o'xshashlik asosida ko'chishi (metafora) va yangi ma'no hosil qilishdir. Bu holat asosan tana a'zolari (oyoq, til, ko'z, bosh, burun va hokazo) da ko'proq kuzatiladi.

Dastlabki asosiy ma'nosi jonlilarning organi bo'lsada, asosiy ma'nodan kelib chiqqan ko'chma ma'nolarning lug'atda berilishini ham ko'rishimiz mumkin. Biz quloq deganimizda birinchi navbatda inson yoki hayvonning organi ongimizda namoyon bo'ladi, lekin «chelakning qulog'i» yoki «ushi kolokola» deyilganda, «quloq» organ emas, balki o'xshashlik asosida paydo bo'lgan biror predmetning qaysidir, unga o'xshash qismini tasavvur qilamiz: «chelakning dastasi», «qo'ng'iroqning ip o'tkaziladigan yoki osib qo'yadigan quloqqa o'xshash tegishli qismi». Albatta yuqoridagi tushunchalar «quloq» leksemasi bilan ifodalansada, ular organ bo'la olmaydi, lekin shakl o'xshashligi jihatidan ular tana a'zosiga bog'liqligi ko'rinadi.

Biz uch tildagi ba'zi bir tana a'zolarining leksik ma'nolarini quyida keltirib o'tdik va shuni kuzatdikki, ularning asosiy leksemaga bog'liq turli xil qiziqarli semalari mavjud ekan:

Nose. 1. noun

1) The part of a person or animal which is on the front of their head, usually just above their mouth, and is used for breathing and for smelling:

Some people have to hold their nose when they go under water. > og'izning tepasida joylashgan nafas olish va hid bilish uchun ishlatiladigan kishi yoki hayvon yuzining oldidagi qismi: *burun*

2) The front end of something such as an airplane, a rocket, or a gun:

The nose of the Space Shuttle was pointed straight up. > samolyot, raketa
yoki qurolning oldingi uchi kabi biror bir narsa

3) A very small distance:

My horse lost the race by a nose > juda kichik masofa

4) A natural skill or ability: *My travel agent has a nose for good deals.*

He always finds the cheapest airfares. > tug`ma qobiliyat yoki mahorat

5) The sense of smell, especially in animals:

This dog has a great nose. She can smell drugs smuggled in any kind of container. > hid bilish qobiliyati, ayniqsa hayvonlarda

6) An inappropriate interest in other people's private affairs and concerns:

Keep your nose out of my business!

If I wanted you to know where I'm going,

I would tell you. > boshqa kishilarning shaxsiy ishlariga, muammolariga nisbatan bo`lgan o`rinsiz qiziqish: kishilarning ishiga burnini tiqmoq

Nose 2. verb

1) To smell: *The dog nosed the bag and started to bark* > hidlamoq

2) Move forward slowly with the front part first: *The ship nosed its way into the harbor.* > biror bir narsaning oldingi qismi asta-sekinlik bilan birinchi harakatlanishi

3) Push or move using the nose: *The dog nosed the ball across the room.* > *burun bilan biron bir narsani itarmoq yoki harakatlantirmoq.* [¹].

Burun-

1) Hidlash organi, hidlash organing tashqi qismi: *Qirra burun;*

2) Jo`mrak. *Choynakning burni;*

3) Qulfning kalit solinadigan teshigi:

Nuri bugun Gulorning uyini hali topib, kaliti burnida unutilgan bir qulfni ochdi;

4) Kemaning old qismi, tumshug`i:

¹ An English - O`zbek Dictionary of selected words with explanations in English and O`zbek. - T., 2004.

Temur Malik eng oldinda borayotgan kemada edi, u ikki qavat sovut va dubulg`a kiyib kema burniga chiqdi. M.Osim, Temur Malik [1].

Нос-

1) Орган обоняние, находящийся на лице у человека и на морде у животных: *Горбатый нос;*

2) Передняя часть лодки, судна, самолёта и т. п.;

3) Клюв птицы;

4) То же, что носок. *Туфли с острым носом* [2].

Mouth-noun

1) The part of a person or animal which is on the front of their head and is used for eating, and for speaking or making sounds:

Her mother told her to to chew with her mouth closed. > kishi yoki hayvon yuzining old qismida joylashgan va eyish, gapirish yoki tovush chiqarish uchun ishlatiladigan Qismi: *og`iz*

2) The part of your face where your lips are located: *Your mouth is covered with chocolate!* Yuzingizning tashqi lablaringiz joylashgan qismi

3) The part of a river or stream where it flows into a sea or a lake: *New Orleans is located near the mouth of the Mississippi River.* > daryo yoki oqar suvning, dengiz yoki ko`lga oqib tushadigan qismi

4) A particular kind of speech or manner of speaking, often one which is rude, or disrespectful: *I don't want you playing with with that boy. He has a bad mouth and I don't want you to start talking that way.* > *ko`pincha qo`pol yoki behurmat bo`lgan aniq, bir nutq yoki gapirish yo`li*

5) An opening or entrance, for example of a cave, canyon or bottle: *The cowboys built a fire at the mouth of the cave, out of the rain.* > *g`or yoki butilka kabi narsalarning ochiq joyi yoki kirish qismi og`zi*

Verb

¹ O`zbek tilining izohli lug`ati II tomlik 1-2-tom. - M., 1981.

² Ojegov, S. Slovar` russkogo yazika. M.: Russkiy yazik, 1984.

1) Move your lips, tongue and mouth as if you are saying something, but without making any sounds: *He was mouthing something to her, but I could understand what he was trying to say.* > tovush chiqarmasdan lab, til va og`izni xuddi bir narsa gapirayotgandek qimirlatmoq

2) Say things, usually without paying attention to, understanding, or believing what you are saying: *He can only mouth the opinions of his teachers. He doesn't really understand the issues discussed in the class.* > biror bir narsani aytmoq, odatda gapirayotgan gapingizga ahamiyat bermasdan, tushunmasdan yoki ishonmasdan

3) Take or touch something with the mouth: *Our baby always mouths everything he picks up-* biror bir narsaga og`iz bilan solmoq [1].

1. Og`iz- noun

1) Ikki jag` o`rtasidagi, ovqatlanish so`zlash yoki ovoz chiqarish uchun xizmat qiladigan bo`shliq: *Yo`lchi uzumdan bir necha donani og`ziga tashladi.* (Oybek, Qutlug` qon);

2) Ikki lab va ularning bir-biriga tegib turgan joyi va atrofi: *Og`zidan o`pmoq;*

3) Ko`chma. So`zlovchi, kishi, odam: *Ko`p og`iz bir bo`lsa, bir og`iz yengiladi. Maqol;*

4) Ko`chma. Birovning qaramog`ida bo`lgan odam; xo`randa, nonxo`r. *Bazzoz pochchaning bekorchi og`izga tobi yo`q edi.* (M. Ismoiliy. Farg`ona tong otguncha);

5) Miltiq, to`pponcha, minomyot, zambarak kabi otish qurollarining o`q otilib chiqadigan teshigi, stvoli: *«To`pning og`ziga qo`yib otib yuboringlar mani, qonxo`rlar!»* (Oybek, Qutlug` qon);

6) Ichki boshlig`i, ichi bo`lgan narsalarning kirish-chiqish uchun xizmat qiladigan joyi, teshigi: *O`raning og`zi, G`orning og`zi;*

7) Ko`chaning, yo`lning boshlanish, kiraverish joyi: *Ko`cha og`zi* [1].

¹ An English - O`zbek Dictionary of selected words with explanations in English and O`zbek. - T., 2004.

Рот-

- 1) Полость между верхней и нижней челюстями, имеющая отверстие в нижней части лица: *Полоскать рот*;
- 2) Очертание и разрез губ: *Рот до ушей* (очень большой, шутл);
- 3) У животных: то же, что пасть;
- 4) Перен. едок, иждивенец (прост): Пять ртов кормлю. *Лишней рот в семье* [2].

Tongue-

- 1) A part of a person or animal, which is in the mouth: *Most animals drink water with their tongue.* > kishi yoki hayvonning og`zida joylashgan organ, til
- 2) Speech: *The mother tongue*-Ona tili;
- 3) A meal: *smoked tongue*-dudlangan til;
- 4) Something in the form of a tongue: *tongue of a flame, bell; tongue of a wind instrument, footwear.* > tilga o`xshash predmetlar
- 5) Pointer of a scales: tarozining ko`rsatgichi [3].

Til-

- 1) Og`iz bo`shlig`iga joylashgan, tam-maza bilish, kishilarda esa, bundan tashqari nutq tovushlari hosil qilish uchun xizmat qiladigan a`zo: *Issiqdan itning tili osilgan.*
- 2) Insonning so`zlash, gapirish qobiliyati: gap, so`zlashuv: *Xotinning bu gapi Bo`taboyning jon-jonidan o`tib ketdi, lekin bundagi kuchli mantiq tilini bog`ladi-yu, hech narsa deyolmadi.* (A.Qahhor, Qo`shchinor).
- 3) Fikr ifodalash va o`zaro aloqa quroli bo`lib xizmat qiladigan tovushlar, so`zlar va grammatik vositalar sistemasi: *Ingliz tili, Rus tili, O`zbek tili.*

Язык-

¹ O`zbek tilining izohli lug`ati II tomlik 1-2-tom. - M., 1981.

² Ojegov, S. Slovar` russkogo yazika. M.: Russkiy yazik, 1984.

³ Qilichev, E. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T.,2000

1) Подвижный мышечный орган в полости рта, являющийся органом вкуса, а у человека участвующий также в образовании звуков речи: *Лизать языком.*

2) В колоколе: металлический стержень, производящий звон ударами о стенки;

3) Перен. чего или какой. О чём-н, имеющем удлинённую, вытянутую форму. Языки пламени. *Язык волны* [¹];

Ear-

1) The part of a person or animal which is connected to each side or the top of their head and is used for hearing: *My sister wants to get her ears pierced.* > eshitish uchun ishlatiladigan kishi yoki hayvon boshining ikkita yoniga bog`langan qismlari, quloq;

2) Have a special ability related to hearing, such as the ability to learn other languages or to produce good music: *I naturally have a good ear for foreign languages. An ear for music.* > eshitish qobiliyatiga aloqador til yoki musiqani o`rganishga bo`lgan maxsus qobiliyat;

3) The willingness to listen or pay attention: *I have lent my ear to to you and to your foolishness for long enough! Beginning now, I will shut my ears to your advice.* > eshitish yoki ahamiyat berish xohishi;

4) The top part of of a plant, such as wheat or corn, which contains the seeds that are harvested or eaten:

The ears of this wheat plant are ripe and ready for harvest. > bug`doy, makkajo`xori kabi o`rib - yig`ib olinadigan yoki iste`mol qilinadigan urug`li o`simlikning ustki qismi;

Quloq-

1) Eshitish organi va uning tashqi qismi: *Odamning qulog`i;*

2) Ba`zi narsalarning ushlab, ilib qo`yish yoki mahkamlash uchun xizmat qiladigan qismi.

¹ Ojegov, S. Slovar` russkogo yazika. M.: Russkiy yazik, 1984.

Chelakning qulog`i. Yog`och karavotning qulog`i. Sigirning qulog`i;

3) Bosh kiyimlarning quloqlari va iyakni yopib, isitib turish uchun tushirib qo`yiladigan uzun qismi:

Telpakning qulog`i. Shapkaning qulog`i;

4) Ba`zi mexanizm va musiqa asboblarning burab ishga tushirish yoki sozlash uchun xizmat qiladigan qismi: *Dutorning qulog`i.*

5) Avtomobil, traktor va shu kabilarning mashinalarni boshqarish uchun xizmat qiladigan qurilmasi; rul:

Hushyorlik bilan mashina qulog`ini burab ketayotgan yosh shofyor Kozim, o`zining harbiy holatda ekanini sezib, nihoyat hayratlangan.

6) O`simlikning barg yoki nihol yozadigan yeri, dastlabki niholga, bargga:

Uch yuz gektarga yerning go`zasi uchinchi marta ekildi. Ammo biz ham bo`sh kelmadik; go`za quloq ko`rsatdi deguncha parvarishlab, yagonalayverdik.

[¹].

Ухо-

1) орган слуха, а также наружная часть его в форме раковины: *Шум в ушах;*

2) перен; обычно ед. Способность воспринимать звуки: *Чуткое ухо у кого-н;*

3) у некоторых предметов: боковая часть, приспособление для подвешивания, подъёма. *Уши колокола;*

4) мн. У тёплой шапки-ушанки-боковые, опускающиеся вниз части. *Шапка с ушами* [²].

Yuqoridagi keltirilgan «og`iz», «quloq;», «burun» va «til» leksemalarining asosiy va keyingi ma`nolarini ko`rib chiqar ekanmiz, ularning deyarli barchasida yetakchi ma`no bilan umumiylik, bog`liqlikni kuzatamiz, mana shu umumiylikning mavjudligi polisemiyaadir.

¹ O`zbek tilining izohli lug`ati II tomlik 1-2-tom. - M., 1981.

² Ojegov, S. Slovar` russkogo yazika. M.: Russkiy yazik, 1984.

2. Ingliz va o`zbek tillarida «og`iz», «quloq», «burun» va «til» so`zlarining o`xshash va farqli tomonlari

Bosh kiyimining quloqlarni va iyakni yopib, isitib turish uchun tushirib qo`yiladigan uzun qismi aynan quloqlarning joylashuviga mos kelishi jihatidan quloq deb nomlanishi, yoki choynakning suyuqlik oqadigan choy qo`yiladigan qismi burunga shakl o`xshashligi jihatidan shunday deb nomlanadi.

Shuningdek, bir tilda mavjud tana a`zosining ko`chma ma`nosi boshqa bir tilda aynan o`sha leksema bilan berilmasligini kuzatdik yoki aksincha.

Masalan, «stol yoki stul oyog`i» tushunchasi uch tilda ham «oyoq» leksemasi orqali ifodalanadi. Lekin o`zbek tilida «miltiq, to`pponcha kabi otish qurollarining o`q, otilib chiqadigan teshigi» tushunchasi «og`iz» semasi orqali ifodalansada, ingliz va rus tillarida bu sema orqali berilmaydi: rotpistoleta, mouth of a pistol deb aytish xato hisoblanadi.

Yana shuni ham ta`kidlash joizki, tana a`zolariga o`xshash har bir predmetning qismi ham u orqali ifodalanmaydi, ya`ni bog`lanmaydi, biz bu holatda tilning mavjud qoidalariga bo`ysungan holda bunday so`zlarni mos ravishda nutqimizda ishlata olamiz.

Lug`atda berilgan ba`zi bir ma`nolarning yetakchi (bosh) ma`nodan uzoqlashganini, ya`ni o`xshashlik uzilganini ham ko`rishimiz mumkin. Bu holatda omonimlar yuzaga keladi. Ularni polisemiya bilan adashtirish yaramaydi.

Polisemik so`zlar tilning lug`at boyligini oshiradi. Bunda bitta leksema bir necha sememalarni yoki tushunchalarni ifodalashi mumkin.

Masalan, ingliz tilidagi «otning bo`yini o`lchaydigan birlik», «soat ko`rsatgichlari», «qo`l mehnati yoki jismoniy mehnat bilan shug`ullanadigan kishi» kabi tushunchalar «hand» leksemasi orqali beriladi. Ya`ni, bu tushunchalarni atash uchun ikkita so`z emas, balki bitta so`z ishlatiladi. Tilda paydo bo`ladigan har bir yangi tushunchani yangi so`z bilan atash, yangi so`z kashf etish oson emas. Shu sababli bunday holatlarda tilda tejash va ma`no jihatdan yaqin tushunchalarni bir so`z orqali ifodalash qulay hisoblanadi.

Tarjimada ham soʻzning nafaqat oʻz maʼnosini, balkim u ifodalaydigan boshqa, koʻchma maʼnolarini ham bilish zarurdir. Bu esa tarjimondan yuksak bilim va mahoratni talab qiladi. Tarjimon tarjima tilidagi soʻzlarni yaxshi oʻzlashtirmasa, u koʻplab xatolarga yoʻl qoʻyishi mumkin yoki uning tarjimasi tinglovchiga tushunarsiz boʻlishi mumkin.

Masalan, «bosh» soʻzini olsak, uning oʻxshashlik jihatidan paydo boʻlgan koʻchma maʼnosi hisoblangan «oʻsimlik yoki sabzavotning boshga oʻxshash ustki qismi» tushunchasi ingliz hamda oʻzbek tillarida mavjud: a head of cabbage, bir bosh karam. Lekin, rus tilida bu tushuncha «bosh» («ГОЛОВА») leksemasi orqali ifodalanmaydi.

Bunda tarjimon ingliz yoki oʻzbek tilidan rus tiliga yuqoridagi tushunchani «одна голова капусты» deb ishlatsa, qoʻpol xatoga yoʻl qoʻygan hisoblanadi va bu holat tinglovchiga ham tushunarsiz, ham kulgili boʻlib tuyulishi mumkin.

Bunda u rus tilida «bir bosh karam» «bosh» soʻzi orqali emas, balki boshqa tushuncha yoki soʻz orqali («качан капусты») orqali ifodalanishini bilishi shart.

III bob bo'yicha xulosa

Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga o'xshashlik asosida ko'chishi (metafora) va yangi ma'no hosil qilishi, so'zlarning ko'chma ma'nolarda kelish holatlari tilda ko'p kuzatiladi. Bu holat asosan tana a'zolari oyoq, til, ko'z, bosh, burun kabilarda ko'proq kuzatiladi. Dastlabki asosiy ma'nosi jonlilarning organi bo'lsada, asosiy ma'nodan kelib chiqqan ko'chma ma'nolarning lug'atda berilishini ham ko'rishimiz mumkin.

Biz III bob tahlilida ingliz, o'zbek va rus tillaridagi ba'zi bir tana a'zolari ya'ni, «og'iz», «quloq», «burun» va «til» so'zlarining leksik ma'nolarini keltirib o'tdik va shuni kuzatdikki, ularning asosiy leksemaga bog'liq turli xil qiziqarli semalari mavjud ekan.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Til - serqirra hodisa bo`lib, ob`ektiv voqelikning ijtimoiy shakli sifatida yashaydi, rivojlanadi. Mashhur tilshunos olim Ferdinand de Sossyur ta`kidlaganidek, «Ijtimoiy tabiati jihatidan qaraganda, til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir, ichki tuzilishiga ko`ra til sof belgi-ishora (ramz)lar sistemasidir».

2. Darhaqiqat, lison inson tafakkurida o`ziga xos umumiy birliklar, ramzlar tizimi sifatida yashaydi, u nutq sharoitidagina ro`yobga chiqadi, moddiylashadi.

3. Til va uning birliklari shakl va mazmun tomonidan iborat. Bir butun, yaxlit lisoniy tizimni tashkil etuvchi bu unsurlararo shakl va ma`no munosabatlari voqelanadi.

4. Shunday munosabatlardan biri so`zlarning ko`p ma`noliligi (polisemiya) bo`lib, leksik semantik sathni tadqiq qilishning eng muhim bosqichi sanaladi.

Zero, ongimizda leksemalar to`g`ri va ko`chma ma`nolari bilan nutqda rang-barang semalarni, obrazli va tasviriy ifodalarni, iboralarni hosil qiladi. Polisemiya til uchun muhim ahamiyatga ega.

Chunki tilda yangi so`z hosil qilish oson emas. Polisemiya esa yangi ma`no kasb etib, tilning lug`aviy boyligini boyitib boradi.

5. Polisemantik so`zlarning tizimi asrlar davomida shakllanib, yangidan-yangi ma`nolar vujudga kela boshladi. Hozirgi ingliz tilining maqsadi ingliz lug`atini boyitib, uning manbalarini shakllantirishdir.

6. Biz mazkur magistrlik dissertatsiya ishimizda «ko`z» va «bosh» so`zlarining ingliz va o`zbek tillarida polisemantikligi jihatidan qiyosladik.

7. Shuningdek, biz «ko`z» va «bosh» so`zlarining umumiy ma`nolari bilan xususiy, nutqiy ma`nolari, o`z va ko`chma ma`nolari, turg`un birikmalardagi semantik qirralari singari lisoniy hodisalarni uch tilda qiyoslash natijasida «ko`z» va «bosh» so`zlarining bu tillarda o`xshashlik va farqlari mavjudligini aniqladik.

8. Ustozlarimiz ta`kidlaganlaridek: «Chet tilini ona tili strukturasi bilan qiyoslab o`rganish uni bir butun sistema sifatida o`rganish imkoniyatlarini kengaytiradi, talabanning bilim darajasiga ijobiy ta`sir etadi va uning til o`rganishdagi faolligini oshiradi».

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// Barkamol avlod—O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. —T.:Sharq, 1997.
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.// Barkamol avlod—O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. —T.:Sharq, 1997.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-1875-sonli Qarori.

II. Ilmiy-badiiy adabiyotlar:

4. Azizov, O. Tilshunoslikka kirish. - T., 1983.
5. Adabiy til jonkuyari professor M. M. Mirzayev tavalludining 90 yilligiga bagishlangan ilmiy maqolalar to`plami). - B., 2002.
6. Abduazizov, A. Tilshunoslikka kirish. II qism. Leksikologiya va semasiologiya. Grammatika. - T., 1999.
7. Buranov, D. Sravnitel`naya tipologiya angliyskogo i tyurskix yazikov. -M.: Visshaya shqola, 1983.
8. Baskakov, N.A va b. Umumiy tilshunoslik. - T., 1979.
9. Begmatov, E. Hozirgi o`zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. - T., 1985.
10. Vorno, E.F. Leksiqologiya angliyskogo yazika. - L., 1955.
11. Golovin, B.N. Vvedenie v yazikoznanie. - M.: Visshaya shkola, 1977.
12. Djuraev, B. Strukturno - semanticheskoe issledovanie mnogoznachnix slov sovremennogo o`zbekskogo yazika. - A.K.D. Tashkent, 1985.
13. Levkovskaya, K.A. Teoriya slova, prinsipi eyo postroyeniya i aspekti izucheniya leksicheskogo materiala. M.:Visshaya shkola, 1962.
14. Morfologicheskaya tipologiya i problema klassifikatsii yazikov. -M. L.:Nauka, 1975.
15. «Ma`rifat gazetasi» 30.08.1997

16. Ne`matov H., Rasulov. R. O`zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T.: O`qituvchi, 1995.
17. Ne`matova, G. LMGlarni o`rganish va o`rgatish istiqbollari haqida. (BuxDU o`zbek tilshunosligi kafedrasining 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. B., 2005. 58-59-b).
18. Ne`matov H., Begmatov. E., Rasulov. R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi. (Sistem leksikologiya tezislari). U.T.A, 1989, №6.
19. Olimova, M. Tillarni qiyosiy o`rganish - talaba faolligini oshirishning muhim omili. B., 2000
20. Raxmatullaev Sh. O`zbek va rus tillarini qiyoslash. - T., O`zbekiston, 1993.
21. Raxmatullaev Sh. O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati. - T., 1978.
22. Raxmatullaev Sh. O`zbek tilining qisqa frazeologik lug`ati. - T.: Fan, 1964.
23. Raxmatullaev Sh., Yunusov. R. Sememalarning semalar tarkibi va semantik bog`lanish haqida. UTA, 1974, №1.
24. Raxmatullaev Sh. Semema - mustaqil til birligi. UTA, 1984, №5.
25. Raxmatullaev Sh. O`zbek frazeologiyasining ba`zi masalalari. - T., 1966.
26. Rasulov R., Narziyeva M. Sistem leksikologiya elementlaridan foydalanish. - T., 1992.
27. Ojegov, S. Slovar` russkogo yazika. M.: Russkiy yazik, 1984.
28. Sodikov A. va b. Tilshunoslikka kirish. - T.: O`qituvchi, 1981.
29. Sossyur de Ferdinand. Kurs obshey lingvistiki. Trudi po yazikoznaniyu. - M., 1977.
30. Sravnitel`no-istoricheskie i sopostavitel`no-tipologicheskie issledovaniya. - M., 1983.
31. Tursunov U. va b. lar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T.: O`zbekiston, 1992.
32. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. - T.: O`qituvchi, 1972.
33. O`zbek tili, leksikologiyasi. - T., 1981.
34. O`zbek tilining izohli lug`ati. - T., 1981.
35. O`zbek tilining izohli lug`ati II tomlik 1-2-tom. - M., 1981.

36. Qilichev E. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T., 2000
37. Qo`ldoshev K. Umumiste`mol va ixtisoslashgan sememalar haqida.
«Mohiyatga intilgan olim» (Prof D.G. Ne`matovga bagishlangan maxsus to`plam). - B., 2001. 41-436.
38. Hozirgi o`zbek adabiy tili. F. A. Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida.
I - tom. - T.: Fan, 1966.
39. Mirzakalonov Ismoilij. Fargona tong otguncha. Roman. T., «Badiiy adabiyot nashriyoti», 1978.
40. Oybek. Qutlug` qon. Roman. T., «O`qituvchi», 1984.
41. Qodiriy A. O`tkan kunlar. Roman – T., “SHARQ” Nashriyot Matbaa Aksiyadorlik Bosh Tahririyati, 2007

III. Lug`atlar va ensiklopediyalar:

42. An English - Uzbek Dictionary of selected words with explanations in English and Uzbek. - T., 2004.
43. Asher, R.E. The Encyclopedia of language and Linguistics. Oxford and New York: Pergamon Press. 1994.
44. Bright. W. International Encyclopedia of linguistics. Cambridge: Cambridge University Press. 1995.
45. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. New Edition. – Macmillan Publishers Limited, 2007.

IV. Internet saytlari:

46. <http://www.yahoo.com>
47. <http://www.yahoo.com.ethil/biography/com>
48. <http://www.google.com>
49. <http://books.google.com>
50. <http://www.websterdictionary.com>
51. <http://www.referat.ru>
52. <http://www.ziyonet.uz>